جديد

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

2026-yil 14-avgust
№ 33 (137)
www.jadid.uz

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

O‘ZBEKISTONni tanimoq baxti



XIX asr oxiri va XX asr boshida Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlari ikki bor Turkiya shaharlariga tashrif buyuradi. Ayniqsa, 1914-yildagi safari “Oyina” jurnali sahifalarida batafsil yoritiladi. Allomaning jadidlik g‘oyasi va islohotlariga kuch-quvvat bergan omil ham ayni safar taassurotlari, xususan, Kichik Osiyodagi taraqqiy mevalariga guvoh bo‘lganidir. Bugun esa O‘zbekistondan o‘rganiladigan davrlar keldi.

(Davomi 8-sahifada).

YETTIKUNLIK

KO‘CHALAR VA KO‘NGILLAR CHAROG‘ON BO‘LGAY



SUN’IY INTELLEKT – YANGI DRAYVER

Haftaning eng muhim voqealaridan biri sun’iy intellekt (SI) ekotizimini rivojlantirish bo‘yicha taqdimot bo‘ldi.

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida O‘zbekiston sun’iy intellektga tayyorlik bo‘yicha xalqaro reytingda 25 pog‘ona yuqorilab, 62-o‘ringa ko‘tarildi. Mamlakat oldiga qo‘yilgan maqsad esa yanada ambitsiyali. O‘zbekistonimiz 2030-yilga qadar dunyodagi eng ilg‘or 50 ta davlat qatoriga kirish, SI asosidagi dasturiy mahsulot va xizmatlar hajmini 1,5 milliard dollarga yetkazish hamda 200 dan ortiq yirik loyihalarni amalga oshirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan.

Bugungacha 24 million dollarlik infratuzilma yaratilgan bo‘lsa, mavjud klasterni kengaytirish uchun yana 70 million dollar yo‘naltiriladi. Shuningdek, Qoraqalpog‘istonda xorijiy investorlar bilan birgalikda yirik datamarkazlar loyihalari amalga oshirilmoqda.

Sun’iy intellektning samaradorligi unga taqdim etiladigan ma’lumotlar sifati (Big Data)-ga bog‘liq. Shu bois, vazirlik va idoralardagi ma’lumotlarni puxta xatlovdan o‘tkazish va yagona, ishonchli ma’lumotlar to‘plamini shakllantirish vazifasi qo‘yildi.

Joriy yilning o‘zidayoq iqtisodiyot va ijtimoiy sohada 100 dan ortiq SI-loyihalar amaliyotga joriy etiladi. Tibbiyot va energetika sohasida kasalliklarni barvaqt aniqlash va energiya sarfini optimallashtirish, transport va bojxona yo‘nalishida logistika va yuklarni raqamli nazorat qilish, jamoat xavfsizligi, ekologiya, geologiya va huquqiy xizmatlar yo‘nalishida IT-Park rezidentlari va 20 dan ortiq SI-laboratoriyalari asosiy lokomotiv bo‘ladi. Joriy yilda ushbu yo‘nalishdagi rezidentlar soni 300 taga, xizmatlar hajmi 2 trillion so‘mga, eksport esa 160 million dollarga yetkaziladi.

Texnologik sakrashni amalga oshirishning eng asosiy omili – bu kadrlardir. O‘zbekiston bu borada keng ko‘lamli ta’lim tashabbuslarini boshladi. Bugungacha 1,5 milliondan ortiq foydalanuvchi SI bo‘yicha sertifikat oldi. 900 nafar rahbar, 3 mingdan ortiq davlat xizmatchisi va 1 ming nafar bank xodimlari maxsus o‘qitildi. Kelgusi ikki yilda ushbu loyiha orqali o‘quvchilar, talabalar va o‘qituvchilar uchun ommaviy SI-savodxonligi ta’minlanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan topshiriqlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sun’iy intellekt sohasida kuzatuvchi emas, balki mintaqada raqamli standartlarni belgilovchi va global bozorga mahsulot eksport qiluvchi faol ishtirokchiga aylanmoqda.

(Davomi 2-sahifada).

IFTIXOR



ILM-FANIMIZNING YANGI YO‘LI

Hammasi 2016-yil 30-dekabr kuni – yil oxirining eng band, eng tig‘iz kunlaridan birida – akademiklar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvdan boshlandi. Yangi yil arafasida, barcha o‘z oilaviy va rasmiy ishlari bilan band bo‘lgan bir paytda, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o‘z jadvalidan besh-olti soatni ajratib, mamlakatimiz akademiklari bilan bevosita uchrashdi. Suhbat mavzusi yengil emasdi: o‘sha paytda Fanlar akademiyasi og‘ir ahvolda edi, ilm-fan tizimi o‘z yo‘nalishini yo‘qotgan, ko‘plab olimlar o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqara olmayotgan edi.

Prezidentimiz har bir akademikning fikr va taklifini sabr bilan oxirigacha tingladi. Suhbat yakunida to‘liq qanoatlanmagani sezilib tursa-da, qat’iy xulosa qildi: ilm-fan ekotizimini, albatta, tiklash kerak, chunki bizda o‘rta asrlardan buyon davom etib kelayotgan buyuk olimlar – Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek kabi allomalar merosi bor va bu meros bugungi avlodni ham shunga munosib ishlarga da’vat etadi.

(Davomi 2-sahifada).

ILM YO‘LI



– Domla, hayotingizning oltmish yildan ziyodini mikroorganizmlar va fermentlarni tadqiq etishga bag‘ishlab kelmoqdasiz. O‘tgan davrda turli fanlar o‘z ustuvorligini boy berib, boshqa fanlar tarkibiga singib ketdi. Shunday sharoitda Siz mikrobiologiyaning istiqboliga qanday qaraysiz?

– Bugungi kunda mikrobiologiyani kelajak fani deyishga asos bor, nazarimda. Chunki biotexnologiyalarning jadal rivojini mikroorganizmlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bugun agrobiotexnologiya, sanoat biotexnologiyasi, sintetik biologiya, bioremediatsiya, mikrobiom texnologiyalari, bioyoqilg‘i ishlab chiqarish, yangi antibiotiklar va shunga o‘xshash aksariyat innovatsion yo‘nalishlarning rivojlanishi mikroorganizmlar bilan bog‘liq. Fermentlar esa bu jarayonlarning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular tabiatdagi eng samarali biologik katalizatorlar bo‘lib, jarayonlarni millionlab marta tezlashtirish qobiliyatiga ega. Eng muhimi, bu jarayonlar me’yordagi bosim, mo‘tadil harorat va neytral muhit sharoitida kechadi. Bu esa fermentlar ishtirokidagi texnologiyalarni ekologik xavfsiz va energiya tejamkor tavsiflanishga olib keladi.

Fermentlarning yana bir muhim afzalligi – ularning yuqori darajada maxsusligi. Har bir ferment muayyan moddaga ta’sir qiladi.

(Davomi 3-sahifada).

FAKT

- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqotga tayyorgarlikning borishi yuzasidan axborot berildi.**
- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlar kuni munosabati bilan soha vakillaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi.**
- **Og‘ir atletika: Osiyo chempionatining oltinchi kungi bahslarida hamyurtlarimiz 18 ta medalni qo‘lga kiritdi.**
- **Nodirbek Abdusattorov “Esports World Cup-2026” musobaqasida Pranav va Dudani mag‘lub etib, keyingi bosqichga yo‘l oldi.**

E’TIROF

TARIX VA BUGUN UYG‘UNLIK KASB ETGAN FILM



(5-sahifada o‘qing).

DOSTONDAN PARCHA

UMR SAODATI

O‘zbekiston sud-huquq tizimi darg‘alaridan biri Halima Muhitdinova (1916–1984) xotirasiga bag‘ishlanadi.

Dunyo ajdar kabi to‘lg‘ongan chog‘da,
Temir iskanjada qolganda Vatan,
Yigit-qizlar kirdi metin saflarga,
Kurashga kirdilar – bir jon-u bir tan.

Millat yelkasiga oftob tegsin deb,
Millat ko‘kragini ko‘tarsin deya,
Millat huquqini anglatdi ular,
Maqsaddan chekinmay biror soniya.

Ular qatorida bir otashyurak
Qiz bor, lekin ko‘pga ma’lum emas u.
Xalqning og‘irini yengil qilmoqchi,
Halima bo‘lsa ham halim emas u.

O‘qib-o‘rganish va puxta tajriba
Yosh o‘zbek qizining kamoli bo‘ldi.
Sud-huquq tizimi zahmatlarida
Vatan manfaati a’moli bo‘ldi.

(Davomi 4-sahifada).

ILM-FANIMIZNING YANGI YO‘LI

Boshlanishi 1-sahifada.

Aynan shu kundan – oddiy ma’muriy buyruqdan emas, balki bildirilgan chuqur ishonch va mas’uliyatdan – O‘zbekiston ilm-fanining yangi yo‘li boshlandi.

MUSTAHKAM POYDEVOR

Oradan o‘tgan yillarni sanab o‘tish mumkin, ammo raqamlar ortida turgan ma’no muhimroq. 2017-yilda, ya’ni, o‘sha muhim uchrashuvdan ko‘p o‘tmay, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi qayta jonlantirildi. Prezidentimizning akademiya tarkibidan chiqarib yuborilgan qator institutlarni qaytarib, moddiy-texnik bazasini tiklash bo‘yicha maxsus qarori qabul qilindi, sohaga katta mablag‘ ajratildi.

2017-yil kuziga kelib, mamlakat tarixida birinchi marta ilm-fan va innovatsiya masalalari bilan maxsus shug‘ullanadigan Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. Qisqa uch yillikka mo‘ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasi qabul qilinib, asosiy qadamlar aniq belgilab olindi.

Bir so‘z bilan aytganda, 2017–2021-yillar davomida ilm-fan rivoji yo‘nalishida zarur poydevorlar barpo etildi. “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi va “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi tarixiy qonunlar qabul qilindi, “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlandi. Ilm-fan va innovatsion rivojlanishni sarhisob qilish maqsadida Milliy ma’ruza qabul qilish yo‘lga qo‘yildi. Ana shunday ochiq tahlilli Milliy ma’ruzaning 2017–2021-yillar sarhisobi chop etildi.

2022-yilda esa Jahon bankining “O‘zbekiston milliy innovatsiya tizimini modernizatsiya qilish” loyihasi doirasida tayyorlangan Milliy ma’ruzada birinchi marta butun ekotizim – davlat boshqaruvi, ta’lim va kadrlar tayyorlash, bilim va g‘oya yaratish, moliyalashtirish, infratuzilma va tijoratlashtirish, ilm-fan madaniyati kabi olti yo‘nalish bo‘yicha batafsil xaritaga tushirildi. Aynan shu hisobotda biz o‘zimizga nisbatan xolis bo‘ldik: ilm-fan va biznes o‘rtasidagi aloqa zaif ekanini, innovatsiya faoliyatining asosiy qismi Toshkentda to‘planib qolganini ochiq tan oldik. Bu – maqtanish uchun emas, tuzatish uchun yozilgan hisobot edi.

2023-yilda esa boshqaruv mustahkamlandi: Innovatsion rivojlanish vazirligi Oliy ta’lim vazirligi bilan birlashtirilib, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashkil etildi. Maqsad aniq – ta’lim, ilm va innovatsiyani bir nuqtaga to‘plab, uni milliy ustuvor vazifa sifatida saqlab qolishdan iborat edi. Ushbu jarayonning ichida bo‘lgan, bu ishlarda qatnashgan ko‘plab mutaxassislardan biri sifatida shuni ayta olamanki, bu oson yo‘l bo‘lmadi, ammo bekor ham ketmadi.

To‘qqiz yil davomida amalga oshirilgan ishlarni bir so‘z bilan ta’riflash mumkin: poydevor. Qonunlar, institutlar, strategik-reja, birlashgan boshqaruv – bularning hammasi ko‘zga unchalik tashlanmaydigan, ammo ustiga mustahkam bino qurilishi kerak bo‘lgan asos edi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, dunyoda boshqa davlatlar ham shunga o‘xshash islohotlarni boshlagan. Ba’zi qo‘shni mamlakatlarda o‘n yildan ortiq davom etgan islohotlarga, yangi vazirliklar va dasturlarga qaramay, Global innovatsiya indeksidagi o‘rin deyarli o‘zgarmay qolgani, yuqori texnologik eksport ulushi esa yillar davomida pasayib borganini kuzatish mumkin. Ilmiy maqolalar soni sezilarli oshgan bo‘lsa-da, aksincha, ularga oid iqtiboslar soni pasaygan, patent arizalari esa o‘n yilga yaqin deyarli bir joyda turgan. Sababi oddiy: yangi qonunlar va tashkilotlar eski, o‘zgarmagan tizim ustiga shunchaki qo‘yib qo‘yilgan, oliy ta’lim, biznes va davlat o‘rtasidagi hamkorlik esa ko‘pincha forum va

> **“Bilinglar, endi davlatlar hududi bilan emas, bilimi bilan, aholi soni bilan emas, texnologiyasi bilan, tabiiy boyliklari bilan emas, inson kapitali bilan raqobatga kirishmoqda.**
>
> **Shavkat MIRZIYOYEV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

memorandumlar darajasida qolib ketgan – natijada islohot faqat qog‘ozga yopishtirilgan, boshqacha aytganda, atrofda “innovatsiyasiz innovatsiya” tushunchasi shakllanishiga olib kelgandi.

O‘zbekiston boshqa yo‘ldan bordi. Biz tizimni shunchaki “yangilash” emas, uni haqiqatan ham boshidan qayta qurishga intildik: eski tuzilma ustiga yangi vazirlik joylashtirish bilan cheklanmadik, balki avval mustaqil, keyin ta’lim tizimi bilan chuqur birlashtirilgan, o‘z faoliyatini doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqadigan yangi institutsional mantiq yaratdik.

ENG MUHIM NATIJALAR

To‘qqiz yillik ishning natijasini faqat so‘z bilan emas, raqam bilan ham ko‘rsatish mumkin va bu raqamlar uchala Milliy ma’ruza hisobotida aniq qayd etilgan.

Birinchidan, olimlar soni va sifati o‘sdi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, har bir million aholiga to‘g‘ri keladigan tadqiqotchilar soni 2020-yilda 876 kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 1002 kishiga yetdi – ya’ni, birinchi marta ming kishilik chegaradan o‘tdi. Falsafa doktorlari (PhD) soni deyarli ikki barobar oshdi. Bu – o‘rta daromadli davlatlar darajasiga yaqinlashish degani, garchi rivojlangan davlatlar (masalan, Janubiy Koreyada bu ko‘rsatkich 7980 kishini tashkil etadi) bilan hali katta farq saqlanib qolsa-da.



Ikkinchidan, mamlakatimiz Global innovatsiya indeksida sezilarli o‘sish ko‘rsatdi: 2015-yilda 141 davlat orasida 122-o‘rinda turgan O‘zbekiston 2025-yilga kelib 79-o‘ringa ko‘tarildi. Lekin bu yerdagi eng muhim jihat faqat o‘rin emas. Jahon intellektual mulk tashkiloti O‘zbekistonni to‘rt yil ketma-ket “overperformer” – ya’ni, mamlakatning iqtisodiy darajasiga nisbatan kutilganidan ancha yaxshi natija ko‘rsatayotgan davlat deb tan oldi. Boshqacha aytganda, biz faqat boyligimizdan emas, aql-zakovatimizdan foydalanib yutuqlarga erishmoqdamiz.

Uchinchidan, yuqorida aytilgan ikki qonun va “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” orqali mamlakatda birinchi marta ilm-fan va innovatsiya uchun yaxlit huquqiy negiz yaratildi. Bu – ko‘rinmas, lekin juda muhim natija: endi har bir keyingi qaror shu negizga tayanadi.

MAS’ULIYATLI BOSQICH

Bilamizki, poydevor – hali imorat degani emas. Bugun biz balki eng mas’uliyatli bosqichga kirmoqdamiz: to‘qqiz yil davomida yaratilgan qonunlar, institutlar, infratuzilma va boshqaruv tizimi endi amaliyotga aylanishi, kundalik foyda berishi kerak. Boshqaruv ancha integratsiyalashgan va mustahkamlangan – ammo bu yo‘l hali tugamagan. Aksincha, aynan shu bosqichda yana ham ko‘proq e’tibor, sabr va mablag‘ talab etiladi, chunki endi vazifa faqat qonun qabul qilish yoki institut tuzish emas, balki o‘sha qonun, o‘sha institut, o‘sha infratuzilmani fermer, olim, tadbirkor va oddiy fuqaroning kundalik hayotida ishlatib ko‘rsatishdir.

Bu yerda men gazeta o‘quvchilaridan hech narsani yashirmoqchi emasman: 2022-yilgi Milliy ma’ruza hisobotda o‘zimiz yozgan muammolar – ilm-fan va biznes o‘rtasidagi zaif aloqa, tadqiqotlarni tijoratlashtirish mexanizmlarining yetishmasligi, Toshkentdan tashqarida ilmiy faoliyatning sustligi – bular haligacha to‘liq hal bo‘lgani yo‘q. Shuni ham ochiq aytish kerak: ilm-fanga ajratilayotgan mablag‘ yalpi ichki mahsulotning 0,14 foizidan oshmaydi, dunyo o‘rtacha ko‘rsatkichi esa 2,63 foizni tashkil etadi – ya’ni, bizdan 15-20 barobar yuqori. Bu – zaiflik belgisi emas, balki nimaga ko‘proq e’tibor berish kerakligining aniq ko‘rsatkichidir: poydevor qurib bo‘lindi, endi uning ustiga imorat qurmoq, ya’ni, amaliy natija, foyda va ishonchga erishmoq zarur, degani.

KELAJAKKA BOG‘LIQ VAZIFA

Endi kelajakka nazar tashlaylik. Har yili mamlakatimizda deyarli bir millionga yaqin chaqaloq dunyoga kelmoqda, aholimizning uchdan bir qismiga yaqini esa o‘n besh yoshgacha bo‘lgan bolalar va yoshlardan iborat. Bu – oddiy demografik raqam emas, bu – kelajak o‘n yillikda qanday jamiyat qurishimizga bog‘liq masala.

Shu yoshlar uchun biz nima tayyorlab qo‘yyapmiz? Agar ular faqat imtihon topshirish, diplom olish va ish qidirishni o‘rgansa, biz katta imkoniyatni boy beramiz. Agar ular maktabdanoq ilm, tajriba va tadbirkorlik ruhida tarbiyalansa,



Ibrohim ABDURAHMONOV, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri, akademik

ularning har biri kelajakda olim, fermer-innovator yoki startap asoschisi bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, O‘zbekiston endi faqat mamlakat ichida emas, mintaqada ham mas’uliyatni zimmasiga olmoqda. 1993-yilda Orol dengizini saqlash xalqaro jamg‘armasiga asos solgan davlatlardan biri sifatida O‘zbekiston 2027–2029-yillarda bu jamg‘armaga uchinchi marta raislik qiladi. Suv, iqlim, oziq-ovqat xavfsizligi, raqamli boshqaruv kabi masalalarni faqat milliy emas, mintaqaviy miqyosda hal qilish – bu bizning oldimizdagi navbatdagi katta vazifa.

REYTINGDAN EKOTIZIMGA, EKOTIZIMDAN KELAJAKKA

To‘qqiz yil oldin mamlakatimiz oldida savol turardi: ilm-fan nima uchun ko‘rinmaydi? Bugun savol boshqacha: ilm-fan kimga xizmat qilmoqda? Ilm-fan quyi qatlamgacha yetib borib, nazariyadan ishonchga, yoshlar uchun kelajakka qo‘yilgan qadamga aylanishi shart.

Biz, Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari o‘z ilmimiz bilan nafaqat yurtimiz, balki mintaqamizni rivojlantirishga ham mas’ulmiz. Shunda ilm-fandagi peshqadamligimiz milliy yutuq emas, umumiy taraqqiyotga aylanadi hamda dunyo uchun namuna darajasiga ko‘tariladi.

Davlatimiz rahbari ilm-fanga, yoshlarga va kelajakka qat’iy ishongan holda belgilab bergan marralarga hali yetganimiz yo‘q. Bu marra sari davom etayotgan yo‘limiz hozir yangi, yanada kengroq va chuqurroq bosqichga kirmoqda.

IMKONIYAT BILIM BILAN UYG‘UNLASHSA...

Bu maqolani turli kasb, turli yosh va turli qarashdagi odamlar o‘qishini hisobga olib, quyidagicha murojaat qilishni ma’qul topdim.

O‘tgan to‘qqiz yillik davr – Prezidentimiz rahbarligida butun davlat tizimi yo‘nalishi qanday o‘zgarganining isboti. Endi har bir vazirlik, har bir hokimlik o‘z sohasida ilm-fan va innovatsiyani qo‘shimcha emas, asosiy vosita sifatida ko‘rishi kerak. Ilm-fan va ta’lim jamoasiga: siz yaratgan har bir maqola, har bir patent, har bir tarbiyalangan talaba – bu milliy boylik, deb uqtirmoqchiman, bu yo‘ldan aslo to‘xtamang. Lekin bu bilim qayerda, kimning hayotida ishladi, degan savolni o‘zimizga muttasil berishimiz kerak.

Yoshlar va yosh tadbirkorlarga yuzlanib, xalqaro reytinglarda ko‘tarilishimiz har biringizga imkoniyat yaratish uchun xizmat qilsin, deyman. Startap, laboratoriya, fermer xo‘jaligi – barchasi sizning g‘oyalaringizni kutmoqda. Sizlardagi ishtiyoq, intilish va bunyodkorlik tashabbuslari juda muhim omil. Ilm-fanga, innovatsiyalarga, ta’limga ajratilayotgan har bir so‘m – xarajat emas, uzoq muddatli investitsiya, qachonki, ular sizning kuchingiz va bilimingiz bilan uyg‘unlashsa. Yuqorida keltirilgan raqamlar, o‘sib borayotgan tadqiqotchilar soni, ko‘tarilayotgan reyting, bularning barchasi sizga, albatta, qanot bo‘ladi.



KO‘CHALAR VA KO‘NGILLAR CHAROG‘ON BO‘LGAY

Boshlanishi 1-sahifada.

Hisoblash quvvatlarining oshirilishi, sifatli ma’lumotlar bazasining yaratilishi, “5 million SI yetakchilari” va mahalliy startaplarning qo‘llab-quvvatlanishi O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotini mutlaqo yangi va barqaror rivojlanish bosqichiga olib chiqadi.

HAMKORLIKNING YANGI DAVRI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp o‘rtasida bo‘lib o‘tgan telefon muloqoti ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklikning yangi, yuqori va tarixiy bosqichga chiqqanini yana bir bor namoyish etdi. Ushbu muloqot ikki yetakchi o‘rtasidagi ishonchga asoslangan yaqin aloqalar nafaqat diplomatik format, balki aniq amaliy natijalar keltirayotgan amaliy sheriklikning mustahkam poydevori ekanini isbotladi.

Muloqotda strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish, xususan, iqtisodiy sohadagi natijalar tahlil qilindi. Iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha uch yillik dastur izchil amalga oshirilayotgani ikki tomonlama savdo-investitsiyaviy munosabatlarga tizimli tus bermoqda. Amerika–O‘zbekiston ishbilarmonlik va investitsiya kengashining ilk yig‘ilishi o‘tkazilishi ishbilarmon doiralar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

O‘zbekiston viloyatlari va AQSH shtatlari o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlikning kengayishi iqtisodiy o‘sishni “quyidan” boshlab rag‘batlantirmoqda.

AQSH fuqarolari uchun vizasiz tartibning joriy etilishi ikki mamlakat fuqarolari o‘rtasidagi masofani qisqartirib, aloqalarni faollashtirdi. Muloqotda fuqaro aviatsiyasi, avtomobilsozlik, tog‘-kon sanoati, energetika, metallurgiya, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar kabi yuqori texnologik sohalardagi qo‘shma loyihalar kun tartibining asosiy qismini tashkil etdi. Bu O‘zbekistonning global qiymat zanjiriga qo‘shilish va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi qat’iy qadamidir.

Global va mintaqaviy xavfsizlik masalalarida esa tomonlar o‘zaro fikr almashib, nizolarni faqat tinch va diplomatik yo‘l bilan hal etish prinsipiga sodiq ekanliklarini tasdiqladilar.

BUNYODKORLIK – YUKSALISH DEMAK

Mamlakatimizda har yili an’anaviy tarzda nishonlanadigan Quruvchilar kuni bayrami bu yil mutlaqo yangi ruh va ulkan bunyodkorlik natijalari bilan kutib olindi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning soha xodimlariga yo‘llagan bayram tabrigida ta’kidlanganidek, bugungi kunda qurilish va shaharsozlik sektori Yangi O‘zbekistonning zamonaviy qiyofasini belgilovchi va milliy iqtisodiyotning jadal o‘sishini aks ettiruvchi “jahonnoma” ko‘zgusiga aylandi. Ushbu tabrikda va sohada amalga oshirilayotgan islohotlarda so‘nggi 10 yilda erishilgan cho‘ng miqyosli yutuqlar, raqamlashtirish va kelajak shaharsozlik konsepsiyalari o‘z ifodasini topdi.

Mamlakatimizdagi bunyodkorlik faqat uy-joylar bilan cheklanib qolmay, balki milliy o‘zlik, ma’naviyat va kelajak muhandisligini o‘zida mujassam etmoqda. Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi va Burhoniddin Marg‘inoniy turizm markazi kabi noyob inshootlar milliy me’morchilik an’analarining yangi bosqichiga aylandi.

Poytaxtdagi Yangi Toshkent, Nurafshon, Bobur (Andijon), Shirin (Samarqand) va Al-Xorazmiy (Xorazm) kabi megaloyihalar mutlaqo yangi muhandislik yechimlari hamda “yashil” qurilish tamoyillari asosida barpo etilmoqda.

Davlatimiz rahbarining bayram tabrigi fidokor quruvchilarga bildirilgan yuksak ehtirom, shu bilan birga Yangi O‘zbekistonning shaharsozlik va infratuzilmaviy taraqqiyoti bo‘yicha uzoq muddatli strategiyasi tarhidir.

ENERGETIKA BARQARORLIGI – TARAQQIYOT MAYOG‘I

11-avgust kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida neft-gaz bozorida barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga uglevodorod resurslarini uzluksiz yetkazib berish chora-tadbirlari bo‘yicha muhim taqdimot bo‘lib o‘tdi. Mamlakatimizda sanoat quvvatlarining shiddat bilan kengayishi, yangi korxonalarning ishga tushishi va aholi sonining o‘sishi tabiiy gaz va neft mahsulotlariga bo‘lgan talabni muntazam oshirmoqda. Bunday sharoitda ichki bozorni zarur resurslar bilan barqaror ta’minlash va mavsumiy taqchillikning oldini olish milliy xavfsizlik darajasidagi ustuvor vazifadir. Ushbu taqdimotda kuz-qish mavsumi oldidan qazib chiqarish, qayta ishlash, logistika, narxlar barqarorligi va suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha muhim operativ va strategik topshiriqlar berildi.

Taqdimotda aholi va ijtimoiy soha obyektlari uchun o‘ta muhim bo‘lgan suyultirilgan gaz ta’minotiga alohida e’tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari tomonidan “O‘zbekneftgaz” AJga suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmini yil yakuniga qadar rejadagi 520 ming tonna o‘rniga 606 ming tonnaga yetkazish topshirildi. Bu qo‘shimcha 86 ming tonna suyultirilgan gaz demakdir va u asosan chekka va olis hududlardagi aholi ehtiyojlarini kafolatli ta’minlashga yo‘naltiriladi.

Ichki bozorda neft va gaz mahsulotlari narxining sun’iy va asossiz o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qat’iy choralar belgilandi. Mahsulotlarni birja savdolariga real talabdan kelib chiqib ishlab chiqarish hamda logistika xarajatlarini qisqartirish, resurslarni asossiz ushlab turish, sun’iy defitsit yuzaga keltirish va narxlarni oshirish holatlarining oldini olish bo‘yicha ta’sirchan nazorat o‘rnatish topshirilgani, manzillar va hududlar kesimida resurslarni oldindan zaxiralash hamda tashuvchi va sotuvchi korxonalar faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish shular jumlasidan.

Taqdimot shuni ko‘rsatadiki, davlat rahbariyati energetika bozoridagi vaziyatni kunlik monitoring qilmoqda. Tinchlik va iqtisodiy barqarorlikning markazida turgan energetika xavfsizligi – qazib chiqarishni ko‘paytirish, ichki bozorni ustuvor ta’minlash va narxlar chayqoviga yo‘l qo‘ymaslik orqali kafolatlanadi. Belgilangan vazifalarning so‘zsiz bajarilishi kuz-qish mavsumida iqtisodiyot tarmoqlarining bir maromda ishlashini va aholi xonadonlari uzluksiz energiya bilan ta’minlanib, ko‘chalar va ko‘ngillar charog‘on bo‘lishini kafolatlaydi.

Iqbol MIRZO

ISTIQBOLLI YO‘NALISH

Boshlanishi 1-sahifada.

Natijada mahsulot yuqori tozalikda olinadi, chiqindilar miqdori kamayadi va mahsulotni qo‘shimcha tozalash uchun sarflanadigan xarajatlar ham sezilarli darajada qisqaradi.

Butun dunyoda zamonaviy ilm-fan mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarda salmoqli yutuqlarga erishmoqda. Bugun oqsil injeneriyasi, yo‘naltirilgan evolyutsiya, sun’iy intellekt va dasturiy o‘qitish texnologiyalari yordamida maqsadli xususiyatlarga ega yangi fermentlarni yaratish imkoniyati mavjud. Bu esa turli sohalar ehtiyojlariga mos yuqori samarali biokatalizatorlarni ishlab chiqishga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda fermentlar oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, kir yuvish vositalari ishlab chiqarish, bioyoqilg‘i tayyorlash kabi ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, mikroorganizmlar va fermentlarni keng qamrovli tadqiq etish nafaqat ilm-fan rivoji, balki iqtisodiyotning turli sohalari uchun ham salmoqli amaliy ahamiyat kasb etadi.

– Keyingi yillarda ekstremal sharoitlarda yashovchi mikroorganizmlarni o‘rganishga jahon miqyosida alohida e’tibor qaratilayotganini kuzatdik. Mazkur tendensiya qaysi omillar bilan bog‘liq holda vujudga keldi?

– Ekstremal sharoitlarda yashaydigan mikroorganizmlar noqulay muhitga moslashish jarayonida o‘ziga xos biologik xususiyatlarga asoslangan mexanizmlarni ishga soladi. Har qanday tirik organizm kabi ular ham hayotini saqlab qolish uchun o‘zining ichki imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanadi. Masalan, ozuqa yetishmaganda yangi muhitga ko‘chadi, kislorod tanqisligida esa havo ko‘proq bo‘lgan qatlamlarga harakat qiladi. Ana shu moslashuv jarayonida kamyob biomolekulalar va fermentlar hosil bo‘ladi.

Biz tomonimizdan olib borilayotgan tadqiqotlarda asosiy e’tibor galofil va galotolerant, ya’ni, tuzga chidamli mikroorganizmlarga qaratilgan. Ular amilaza, lipaza, proteaza, sellyuloza, ksilanaza, DNK-polimeraza kabi qator muhim fermentlarni sintez qiladi. Bularning eng muhim afzalligi shundaki, ular yuqori sho‘rlanish, ekstremal muhit, organik erituvchiga ega va yuqori harorat kabi og‘ir sharoitlarda ham o‘z faolligini saqlab qoladi. Shu bois, ular sanoatning turli tarmoqlari uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida bunday mikroorganizmlarga bo‘lgan qiziqish yil sayin oshib bormoqda. Sho‘rlanish nafaqat O‘zbekiston, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida yechimini kutayotgan, dolzarb muammolarni vujudga keltirayotganligi sir emas. Rizosfera mikroorganizmlari ishlab chiqaradigan fermentlar o‘simliklarning tuz stressini yengillashtirishga, fosfor va azot kabi ozuqa elementlarini o‘zlashtirishini yaxshilashga, temir bilan ta’minlanishini kuchaytirishga hamda hujayralarni oksidlanish stressidan himoya qilishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlar orqali o‘simliklarning sho‘rlangan tuproqlarda ham o‘sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

– Bugun mamlakatimizda biotexnologiyaning rivojlanishini qanday baholaysiz?

– Menimcha, so‘nggi yillarda erishilgan yutuqlar O‘zbekistonda biotexnologiya faol shakllanish va jadal rivojlanish bosqichida turganligini asoslaydi. Sohaga davlat tomonidan berilayotgan e’tibor, ilmiy infratuzilmani takomillashtirish, xalqaro hamkorlikning kengayishi va yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash kabi omillar bu yo‘nalish taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, agrobiotexnologiya, mikrobiologiya, o‘simliklar genomikasi va biofarmatsevtika sohalarida salmoqli natijalar ko‘zga tashlanmoqda.

Bu borada, mamlakatimizda ushbu yo‘nalishlarda shakllangan ilmiy maktablar ham muhim o‘rin tutadi. Fanlar akademiyasi



tizimidagi institutlar, ixtisoslashgan universitetlar va ilmiy markazlardagi mutaxassis olimlar tomonidan ekstremal muhit mikroorganizmlari, rizosfera bakteriyalari, mikrob fermentlari, o‘simliklar genetikasi va seleksiyasi bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Ta’kidlab o‘tish lozimki, yuqoridagilar bilan bir qatorda, O‘zbekistonning tabiiy sharoiti ham biotexnologiya uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Sho‘rxoklar, cho‘l hududlari, baland tog‘lar va gipersho‘r ko‘llar kabi noyob ekotizimlar yangi mikroorganizmlar, fermentlar va biologik faol moddalarni izlash uchun bebaho tabiiy laboratoriya vazifasini bajaradi. Bu resurslardan samarali foydalanish kelajakda mamlakatimizning bu sohada raqobatdoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Albatta, yechimini kutayotgan masalalar ham bor. Avvalo, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasini yanada oshirish zarur. Ko‘plab istiqbolli loyihalar laboratoriya bosqichidan ishlab chiqarishgacha yetib bormayapti. Shuningdek, biotexnologik startaplar, xususiy investitsiyalar va yuqori texnologiyali kompaniyalar sonini ko‘paytirish, zamonaviy ilmiy uskunalar bilan ta’minlash hamda bioinformatika, sintetik biologiya va sun’iy intellekt yo‘nalishlarida malakali mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

O‘ylashimcha, kelgusi yillarda mamlakatimiz uchun eng istiqbolli yo‘nalishlar agrobiotexnologiya, o‘simliklar o‘sishini rag‘batlantiruvchi bakteriyalar, mikrob fermentlari, bioo‘g‘itlar, ekologik biotexnologiya, biofarmatsevtika hamda genomika va sun’iy intellekt bilan bog‘liq tadqiqotlar bo‘ladi.

Shubha yo‘qki, ushbu yo‘nalishlar genomika, bioinformatika va sun’iy intellekt texnologiyalari bilan uyg‘un rivojlantirilsa, yaqin o‘n yillikda O‘zbekiston agrobiotexnologiya sohasida xalqaro miqyosda munosib o‘rin egallaydi.

– Tushunishimcha, muammo ilmiy ishlanmalarning yo‘qligida emas, balki ularni katta hajmda ishlab chiqarib, iste’molchigacha yetkazish masalasida ekan. Shundaymi?

– Ha. Ilmiy ishlanmalarimiz bor, ularning dastlabki namunalari ham yaratilgan. Lekin ularni katta hajmda ishlab chiqarish va bozorga olib chiqish imkoniyatlarimiz hozircha cheklangan.

Bugungi kunda institutimizda qator preparatlar yaratilgan, ularga milliy va Yevropa patentlari olingan. Hozir ilm-fanda “aqlli o‘g‘itlar” degan tushuncha keng qo‘llanmoqda. Bunday o‘g‘itlar o‘simlikning ehtiyojiga qarab zarur miqdordagi azot, fosfor, kaliy va boshqa elementlarni yetkazib bera oladi. Ularning bir qismi mikroorganizmlar asosida yaratiladi. Bozorga chiqish, avvalo, ishlab chiqarish hajmi bilan bog‘liq. Qaysi mahsulotga ehtiyoj borligi va u qancha miqdorda kerak bo‘lishini aniq bilish muhim. Masalan, “aqlli o‘g‘itlar” misolida oladigan bo‘lsak, o‘simlikka qachon va qancha miqdorda azot kerakligini hisobga olish lozim. Xuddi shuningdek, aholi uchun qaysi dori vositalariga ehtiyoj borligi va ularning zaruriy hajmini ham to‘g‘ri belgilash zarur. Biroq asosiy muammo – ularni katta hajmda ishlab chiqarish va iste’molchigacha yetkazish masalasidir. Agar sifatli va ommaviy ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilsa, mamlakatimizda mikrobiologiya sanoati hamda mikrob biotexnologiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Farmatsevtika yo‘nalishida ham salmoqli natijalarga erishilgan. Jumladan, inson oshqozon-ichak tizimi faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi yangi avlod probiotik preparatlari yaratilgan. Biroq ularni dorixona tarmoqlariga olib chiqish uchun zamonaviy uskunalar va yirik ishlab chiqarish quvvatlari zarur.

Menimcha, mamlakatimizda biotexnologiyani rivojlantirishning asosiy ilmiy salohiyati Mikrobiologiya institutida jamlangan. Bu yerda yaratilayotgan ishlanmalarga ehtiyoj bor, ularning iste’molchilari ham kutib turibdi. Endi asosiy vazifa – ushbu mahsulotlarni zarur hajmda ishlab chiqarish va iste’molchiga yetkazishdan iborat. Hozir biz aynan shu yo‘nalishda ishlayapmiz.

– So‘nggi 50-55 yilda mikrobiologiya sohasidagi eng katta yutuqlar sifatida qanday yutuqlarni sanab o‘tishingiz mumkin?

– Eng muhim kashfiyotlardan biri molekulyar genetika va rekombinant DNK texnologiyalarining yaratilishi bo‘ldi. Bu genlarni bir organizmdan ikkinchisiga ko‘chirish, genetik modifikatsiyalangan mikroorganizmlar yaratish va rekombinant oqsillar olish imkonini berdi. Natijada inson insulini, o‘sish gormoni, interferonlar hamda bir qator vaksinalarni mikroorganizmlar yordamida ishlab chiqarish texnologiyalari amaliyotga joriy etildi.

Ikkinchi muhim qadam 1983-yilda polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) usulining yaratilishi bo‘ldi. Bugun ushbu texnologiyasiz mikrobiologiyani tasavvur qilish qiyin. U infeksiyalarni tez va to‘g‘ri aniqlash, sud-tibbiy ekspertizasi, genomlarni o‘rganish hamda ekologik tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Shu bilan birga, mikroorganizmlar genomlarining to‘liq o‘qilishi va metagenomika usullarining rivojlanishi fanda yangi imkoniyatlarni ochdi. Ilgari laboratoriyada o‘stirish mumkin bo‘lgan mikroorganizmlargina o‘rganilar edi. Metagenomika esa tuproq, suv, okeanlar, inson va hayvon organizmi kabi muhitlardan DNKni bevosita tahlil qilish imkonini berdi.

XXI asrning eng yirik kashfiyotlaridan yana biri – CRISPR-Cas genomni tahrirlash texnologiyasidir. U bakteriyalarning tabiiy himoya mexanizmi asosida yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda irsiy kasalliklarni davolash, yangi o‘simlik navlarini yaratish va yuqori samarali mikroorganizmlarni konstruksiyalashda keng qo‘llanilmoqda.

So‘nggi yillarda inson mikrobiomini o‘rganish ham mikrobiologiyada yangi sahifa ochdi. Inson organizmida yashovchi minglab mikroorganizmlar immunitet, moddalar almashinuvi va ko‘plab kasalliklarning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq ekani ilmiy jihatdan isbotlandi. Shu bois, bugun mikrobiomni ayrim olimlar insonning o‘ziga xos “virtual organi” sifatida baholamoqda.

Ekstremal muhitlarda yashovchi mikroorganizmlarning kashf etilishi ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular yuqori harorat, kuchli sho‘rlanish, yuqori bosim yoki ekstremal kislotalik sharoitlarida ham yashay oladi. Masalan, “Thermus aquaticus” bakteriyasidan olingan Taq-polimeraza fermenti PZR texnologiyasining asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Bu kashfiyot butun molekulyar biologiya taraqqiyotiga kuchli turtki berdi.

Shu bilan birga, mikroorganizmlardan atrof-muhitni neft, og‘ir metallar va boshqa zararli moddalardan tozalashda, qishloq xo‘jaligida esa o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi biopreparatlar yaratishda keng foydalanilmoqda. Ayniqsa, rizosfera mikroorganizmlari asosida ishlab chiqilayotgan bioo‘g‘itlar tuproq unumdorligini oshirish va sho‘rlanishga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

– Ustoz, Siz uzoq yillardan buyon shu sohada faoliyat yuritib kelyapsiz. Bugun mikrobiologiya va, umuman, ilm-fanning rivojlanishi Sizni qoniqtiradimi?

– Men ko‘pincha “oxirgi yillarda” degan iborani ishlatishni yoqtirmayman. Lekin haqiqatni tan olish kerak. Mana, hozir biz suhbatlashib turgan institut korpusi yetti yil oldin deyarli foydalanishga yaroqsiz holatda edi. Prezidentimiz maxsus qaror asosida institutni rivojlantirish uchun 1 million 200 ming dollar mablag‘ ajratdi va zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta’minlash ishlari boshlandi.

Bugun laboratoriyalarimizda mikrobiologiyaning dastlabki bosqichlaridan tortib, murakkab tadqiqotlargacha bo‘lgan ishlarni Xitoy, Rossiya, Belarus va dunyoning boshqa rivojlangan davlatlar darajasida olib borish imkoniyatiga egamiz.

Shuningdek, antibiotiklarga chidamlilik – rezistentlik bugungi kunda global muammolardan biriga aylanib bormoqda. Mutaxassislarning ayrim prognozlariga ko‘ra, agar bu jarayon shu tarzda davom etsa, kelajakda oddiy infeksiyalarni davolash ham murakkablashishi mumkin. Shu sababli, yangi antimikrob moddalarni yaratish va mikroorganizmlarning imkoniyatlarini chuqur o‘rganish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

– Hozir ayrim shifokorlar, xususan, pediatrlar antibiotiklarni imkon qadar kam qo‘llash tarafdori. Jamiyatda esa antibiotiklarga nisbatan salbiy munosabat shakllanmoqda. Siz bunga qanday qaraysiz?

– Antibiotiklar deganda, bir mikroorganizm, o‘simlik yoki boshqa biologik manbalarda hosil bo‘lib, boshqa mikroorganizmlar faoliyatini to‘xtatish xususiyatiga ega biologik faol moddalarni tushunamiz. “Antibiotik” atamasi 1942-yilda amerikalik mikrobiolog Selman Vaksman tomonidan ilm-fanga kiritilgan. Antibiotiklarni sanoat miqyosida ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratgan olimlar esa Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Qiziq tomoni shundaki, o‘sha davrning o‘zidayoq olimlar antibiotiklardan noto‘g‘ri foydalanish kelajakda jiddiy muammolarga olib kelishi mumkinligini ta’kidlagan. Aslida, antibiotikni qo‘llashdan oldin kasallikni qo‘zg‘atayotgan mikroorganizm aynan qaysi preparatga sezgir ekanini mikrobiologik tahlillar orqali aniqlash kerak. Shifokor bemorning tarixini, avval qaysi antibiotiklarni qabul qilganini va organizmining xususiyatlarini bilishi shart.


Mikroorganizmlar moslashuvchan, bir antibiotik ta’sirida ularning bir qismi nobud bo‘lsa, ayrimlari vaqtincha faolligini yo‘qotadi, yana bir qismi esa chidamlilik hosil qilib qolishi mumkin. Antibiotiklardan noto‘g‘ri foydalanish aynan ana shu chidamli shtammlarning ko‘payishiga olib keladi.

Shuning uchun antibiotiklarga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishiga ma’lum ma’noda o‘zimiz ham sababchimiz. Ko‘pincha odamlar shifokorga murojaat qilmasdan dorixonadan antibiotik sotib oladi. Bola isitmasi tushishi bilan davolashni muddatidan oldin to‘xtatib qo‘yadi. Natijada kasallik qo‘zg‘atuvchi bakteriyalar antibiotikka moslashib, rezistentlik rivojlanadi.

Bugun ayrim pediatrlarning antibiotiklarni imkon qadar kam qo‘llashga chaqirayotgani ham bejiz emas. Chunki ko‘plab infeksiyalarda organizmning o‘zi, immun tizimi va tabiiy himoya mexanizmlari muhim rol o‘ynaydi. Har bir isitmada yoki shamollashda darhol antibiotik qo‘llash shart emas, deb o‘ylayman.


– Rahmat, ustoz, o‘ylaymanki, suhbatingizdan mushtariylarimiz ko‘plab zarur ma’lumotlar bilan birga, o‘zlarini qiziqtirgan dolzarb savollarga ham javob olishdi. Sizga ularning nomidan ham minnatdorlik bildirib, ilm-fan yo‘lidagi sharafli ishlaringizda yanada zalvorli zafarlar tilab qolamiz!

Vasila HABIBULLAYEVA
suhbatlashdi.



> **Fanni ko‘pincha bilim deb o‘ylashadi. Fan faqatgina bilim bo‘lmay, shu bilimdan qanday foydalanish uquvi, ya’ni, idrokdir.**
>
> **Vasiliy KLYUCHYEVSKIY**

OLAM OLIMI



Aleksandr FLEMING

Penitsillin kashfiyotchisi

HAYOT YO‘LI

Aleksandr Fleming 1881-yilda Shotlandiyaning Ayrshir hududida tug‘ilgan.

U Londondagi Muqaddas Mariya shifoxonasi tibbiyot maktabidagi tahsil jarayonida bakteriologiya sohasiga qiziqib qoladi. Ilmiy faoliyatida professor Almrot Rayt muhim o‘rin tutgan. Uning rahbarligida immunitet, infeksiyalar va bakteriyalar bilan bog‘liq tadqiqotlar olib bordi. Shu davrda Fleming kuzatuvchanligi va tajribalarga tanqidiy yondashishi bilan e’tiborga tushdi. Birinchi Jahon urushi davrida harbiy gospitalda yarador askarlarni davolash bilan birga, infeksiyalar muammosini ham o‘rgandi. U ba’zi antiseptiklarni yaralarga noto‘g‘ri qo‘llash zararli bo‘lishi mumkinligini kuzatdi.

KASHFIYOT TADRIJI

Ta’tildan laboratoriyasiga qaytgan Fleming stafilokokk bakteriyalari o‘stirilgan Petri idishlaridan birida mog‘or paydo bo‘lganini ko‘rdi. E’tiborlisi, mog‘or atrofida bakteriyalar o‘smagan edi. Olim bu holatni tasodif deb qabul qilmadi. U mog‘or bakteriyalarning o‘sishini to‘xtatuvchi qandaydir modda ishlab chiqarayotgan bo‘lishi mumkinligini taxmin qildi. Keyinchalik bu modda penitsillin deb nomlandi. Fleming 1929-yilda o‘z tadqiqot natijalarini ilmiy maqola sifatida e’lon qildi.

Penitsillinning haqiqiy doriga aylanishida Oksford universiteti olimlari Govard Flori va Ernst Cheynning xizmati beqiyos. Ular Flemingning dastlabki tadqiqotlariga tayanib, penitsillinni ajratib olish, tozalash va uni tibbiy maqsadlarda qo‘llash usullarini ishlab chiqdilar. 1940-yilda o‘tkazilgan tajribalarda penitsillin og‘ir bakterial infeksiyaga chalingan sichqonlarning hayotini saqlab qolishi mumkinligi namoyish etildi. 1941-yilda penitsillin insonda qo‘llandi.

Ikkinchi Jahon urushi davrida AQSH va Buyuk Britaniyada uni sanoat miqyosida ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Penitsillinning keng tarqalishi og‘ir bakterial infeksiyalar, yara infeksiyalari va pnevmoniya kabi kasalliklarni davolash imkoniyatlarini keskin oshirdi. Urush davrida ko‘plab yaradorlarning hayotini saqlab qolishda ham muhim rol o‘ynadi.

E’TIROF

1945-yilda Aleksandr Fleming, Ernst Cheyn va Govard Flori fiziologiya yoki tibbiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldilar. Mukofot ularning penitsillinni kashf etishi va uning turli yuqumli kasalliklarga qarshi davolash ta’sirini ochib bergani uchun taqdim etildi.

Bu mukofot muhim haqiqatni ko‘rsatadi: buyuk ilmiy kashfiyot ko‘pincha bir insonning g‘oyasi bilan boshlansa-da, uni insoniyat manfaatiga xizmat qiladigan texnologiya va doriga aylantirish uchun ko‘plab olimlarning mehnati talab etiladi.

OGOHLANTIRISH

Penitsillinning kashf etilishi infeksion kasalliklarni davolash tarixida yangi davrni boshladi. Uning muvaffaqiyati boshqa antibiotiklarni izlash va ishlab chiqishga ham katta turtki berdi. Shu ma’noda, Flemingning kashfiyoti faqat bitta dori vositasining yaratilishi emas, balki zamonaviy infeksion tibbiyotning shakllanishiga asos solgan ilmiy voqea bo‘ldi.

Fleming antibiotiklarning kelajakda noto‘g‘ri qo‘llanishi xavfini ham yaxshi anglagan olimlardan edi. U penitsillin yetarli bo‘lmagan miqdorda yoki noto‘g‘ri qo‘llansa, bakteriyalar dori ta’siriga chidamli bo‘lib borishi mumkinligidan ogohlantirgan.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

UMR SAODATI



Yaqin tariximizning eng og‘ir va murakkab davrida O‘zbekiston Ministrlar Soveti Raisining o‘rinbosari, Adliya vaziri o‘rinbosari, Oliy sud raisi singari yuksak mansab va martabalarga erishgan Halima Muhitdinova butun umri va faoliyatini jafokash xalqning hayotida imkon qadar adolat ustuvor bo‘lishiga bag‘ishlagan, deyish mumkin.

Hayot kitobini varaqlar ekansiz, bu millatparvar ayolning nafaqat yuqori lavozimlardagi tashkilotchilik salohiyatiga, balki qaltis va tahlikali sharoitda ko‘rsatgan yuksak insoniylik fazilatlariga ham guvoh bo‘lasiz.

Davlatimiz rahbari sud tizimida kechayotgan islohotlar samaradorligini oshirish shaffoflik, halollik va adolat muhitiga bog‘liqligini ta’kidlab, bu borada malakali kadrlar masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu ma’noda, xalq orasida “haqiqat posboni” nomini olgan huquqshunos Halima Muhitdinovaning hayot yo‘li ibratlidir.

Iste’dodli shoir Salim Ashur qalamiga mansub doston-poemada Halima ayaning o‘z xalqiga bo‘lgan cheksiz muhabbati va fidoyiligi badiiy yo‘sinda ochib beriladi.



Salim ASHUR

Boshlanishi 1-sahifada.

Ishni boshlar ekan, qarshi to‘lqinlar
Po‘latdek tobladi uning fe’lini.
Hayot ummon bo‘lsa, kurashga kirdi
Baxtiyor ko‘ray deb yurt-u elini.

...O‘ttizinchi yillar oxiri edi,
Asriy Mirzacho‘lni o‘zlashtirishda
Kutib olib minglab cho‘lquvarlarni,
Tashkilotchi bo‘ldi shu qiyin ishda.

Yozda kaftdek soya, qishda cho‘p, o‘tin,
Tunda chiroq, kunduz tashnaga suv yo‘q.
Yo‘qni yo‘ndirguvchi Halima bilan
Mehnatkash qavmning ko‘ngli bo‘ldi to‘q.

...Insonlik huquqi, axloq huquqi,
Yaxshilik huquqi – hidoyat bo‘ldi.
Nokaslar nohaqdan bosh ko‘tarsa gar,
Adolat – eng oliy qadriyat bo‘ldi.

Sevib tanlagani behalovat ish,
Biladi so‘z cho‘g‘in kim aytishini.
Kech qolsa, ko‘chada kutadi ona,
Qizin to‘rt muchasi sog‘ qaytishini.

...O‘lkaning tang qolgan go‘shalarida
Kezganda Ikkinchi Jahon urushi
Bolalar, ayollar, qariyalarni
Tahqirlaganida fashist yurishi.

Xudo yorlaqagan tuprog‘imizga
Eshelon-eshelon xor-zorlar keldi.
Onasiz go‘daklar, majruh onalar,
Xo‘rlangan, abgorlar, ozorlar keldi.

Xalqim, sening mehr-u saxovatingga
Ta’zim qilar edi olisda Shimol.
Muhtojlar boshini silagan qo‘llar –
O‘zbek ayollari – Hazrati ayol!

Ayondir – oqibat, xayr-saxovat
Qilinmas hech bitta tilga tarjima.
Halima tug‘ilgan yurt Namanganda...
O‘zbekning timsoli bo‘ldi Halima.

...Erkaklar urushda, bolalar yupun...
Mag‘zini chaqarkan mahzun so‘zlarning,
Shu og‘ir turmushni yengil qilay deb
Yetakchisi bo‘ldi xotin-qizlarning.

Paxtada, g‘allada, poliz, chorvada
Oshdi ayollarning mehnat ulushi.
Shaxs va rahbar bo‘lib toblandi obdon,
Ortdi Halimaning ishi, yumushi.

Tajribali rahbar, tashkilotchi deb
Toshkentga, poytaxtga chaqirildi u.
Oliy idorada faoliyati,
Murod-u orzusi xayrli, ezgu.

Qirq to‘rtinchi yili, urush kunlari
Yana dahshat qo‘pdi, nomi – Jo‘ylangar.
Bartaraf etishga Halima boshliq
Yuzlab mutaxassis bo‘ldi safarbar.

Jo‘ylangar-u Sarmich, Sovot, Changovul...
Olis qishloqlarda tarqaldi vabo.
Har kuni yigirma, o‘ttizdan ortiq
Odamni yamlamay yutar bu balo.

Vazifa, topshiriq va mas’uliyat
Uni shu o‘latning ichiga otdi.
O‘zini o‘ylamay, jonni ayamay,
Odamlar tashvishi, g‘amiga botdi.

Bir tomonda urush, bir yoqda vabo,
El boshiga tushdi chinakam g‘orat.
Qishloqlar huvillab qoldi, aslida
Urushdan kam emas edi bu holat.

Sog‘lom bolalarni olib chiqdi u,
El-elat iqbolin asrab qololdi.
Halima – bir so‘zli, azamat ayol,
Vaziyat tizginin qo‘liga oldi.

Zamon – qahri qattiq, davr-chi, qattol,
Halima yurmadi pana, ko‘lkada.
Bu yuragi katta, oromi kichik
Ayol tanilgandi butun o‘lkada.

Kutib tursa hamki o‘z yumushlari,
Muhimroq deb bildi el tashvishini.

Har qanday ayollik parvarishidan,
Muhimroq bildi yurt parvarishini.

Oqillik, donolik, iqtidor bilan
Boshlagan har ishi kelaverdi o‘ng.
Taqdir ham bearmon siyladi, mana, –
Mansab, lavozimlar, vazifalar cho‘ng.

O‘zining boshqaruv uslubi, ayon
Ko‘rindi rahbarlik qobiliyati.
Oddiy zinalardan yuksak-yuksakka
Olib chiqdi uni ezgu niyati.

U – prokuror, sudya, adliya ishi,
Eng go‘zal insoniy xulq-u fazilat.
Hayot sandonida toblandi rosa,
Ko‘ngli – guldek nozik, iroda – po‘lat.

BMT – jahonning oliy minbari,
Ilk bor olqishladi o‘zbek ayolin.
Dunyo ko‘rdi ulkan ko‘zlari bilan
O‘zbek ayolining shahd-u kamolin.

Diydasi to‘q edi, biror kimsaning
Urvoqcha ko‘rinmas na mol, na zari.
Har qanday odamni turgan yeriga
Mixlab qo‘yar edi o‘tkir nazari.

Bir adolat afzal ming ibodatdan:
Ishondi haq so‘zning qudrat, kuchiga.
Xalqqa xizmat kasbi, sharafi, shoni,
Sodiq qoldi doim vijdon burchiga.

Umr saodatin mehnat deb bilib,
Kamolot ko‘kida ayladi parvoz.
Shogirdparvar bo‘ldi ishda, hayotda,
Shogirdlar dedilar: “Muhtaram ustoz!”

Jinoyat va jazo – qadim dunyoning
Ming yillardan buyon “sodiq” hamrohi.
Bir yoqda Hamzaning faryod-dodi va
Bir yonda Mashrabning tinmagan ohi.

Nur bor yerda soya bor, derlar doim,
Oyning ham o‘n beshi yorug‘, qorong‘u.
Saksoninchi yillar taloto‘pida
Unga ham chang soldi qatag‘on, qayg‘u.

Unga ham chang soldi qabih razolat,
Qabohat uning ham bo‘g‘zidan tutdi.
Davlat oldidagi fidokorona,
Ulkan xizmatini darhol unutdi.

Aslida kir, qonli qo‘llari bilan
Vatanga chang solgan edi istibdod.
Hurriyatga tashna O‘zbekistonning
Qanotin qirqmoqchi bo‘ldilar, hayhot!

“O‘zbek ishi”, “paxta ishi” deb to‘qib,
Qo‘rquvda tutmoqchi bo‘ldilar xalqni.
Nogoh hamla qilgan ajdarga ayol
Qarshi qurol qildi haqiqat, haqni.

Halima ojiza ayol emas, yo‘q,
Mardona turdi u, loyqa suv tindi.

“Desantchi”lar tutgan, qonni qo‘msagan
Dahshatli yovuzlik qilichi sindi.

O‘zbekni kishanda tutmoqchi bo‘lgan
Istibdod zamoni edi u zamon.
O‘lim bu dunyoda yomon emas, yo‘q,
Tobelik dunyoda yomondan yomon!

O‘tgan u kunlari xotira, yodgor,
Yovni tutdi ajri arzi-dodlarning.
Vulqondek uyg‘ondi ruhda nomus, or,
Orzusi ushaldi ne-ne zotlarning.

Erk – Humo qush bo‘lib keldi yurtimga,
Tobelik zanjiri to‘zdi, yo‘qoldi.
Davronlar, zamonlar o‘tdilar, biroq
O‘zbek, O‘zbekiston manguga qoldi!

Istiqlol negizi bo‘ldi diyonat,
Dilga ko‘chdi o‘tmish kalimalari.
Vatanni quyoshdek yoritib turar
O‘zbekning mardona Halimalari.

Bu taqdirdan saboq chiqargil, Inson,
Boq tarixda qolgan o‘chmas iziga,
Tasanno aytaylik, ta’zim qilaylik,
Halima – millatning buyuk qiziga.

O‘zbek ayollari – egachilarim,
Yorug‘ kunlar uchun to‘lagan badal.
Ayolga, Onaga, Yorga va Qizga
Avvalo ko‘ngilda qo‘yaylik haykal!

O‘zbek e’zoz topdi shu zamonamda,
Mustaqillik bergan baxtdan ko‘ngil to‘q.
Bir bo‘lib, birlashib, birgalashaylik!..
“Hukm qat’iy, shikoyatga o‘rin yo‘q!”

YANGI KITOBLAR

QADRLI TUHFA

O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning bir she’rida shunday satr bor: “Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni”. El-yurtimizning bebaho fazilatlari tasvir etilmish bu ezgu da’vatda shoir ijodining asosiy mazmuni va tiynati ham mujassam, desak, xato bo‘lmas. Shu ma’noda, shoirning yaqinda rus tilida nashr etilgan yangi kitobi “Отдай ласточкам свои веранды” deya nomlanishi bejiz emas. Aytish mumkinki, muallifning rus tilida ilk bor taqdim etilayotgan ushbu muazzam to‘plami rusiyzabon adabiyot muxlislari uchun qimmatli tuhfa bo‘ldi.



To‘plam “За Родину нашу, за нацию и за народ!..”, “Живой огонь – родные очаги”, “Берег сердца и души”, “Возрождение”, “На уроках сердца”, “От взгляда твоего сгореть”, “Высокая одержимость”, “Меж нами выросла стена...”, “Цветущий сад газелей и любви”, “Остановить пулю!..”, “Два столетия – одна жизнь”, “Здесь в сердце боль”, “Поездка поэта Вахаба”, “Еще не кончилась война!”, “Восьмидесятые годы”, “Потерянный мною дастан”, “Двустишия”, “И каждый миг идет экзамен твой”, “Посвящение Родине”, “Статьи о поэте и его творчестве” kabi kichik bo‘limlardan tashkil topgan.

Kitobdan turli yillarda yozilgan she’r va dostonlar bilan birga, Yangi O‘zbekistonda adabiyot rivojiga qaratilayotgan yuksak e’tibor, taniqli rassom siyratiga chizgilar, Aleksandr Pushkin ijodining yurtimizda o‘rganilishiga oid maqolalar, taniqli rus shoiri Andrey Voznesenskiy hayoti va ijodiga, shuningdek, ona xotirasiga bag‘ishlangan hamda “Vahob shoirning safari” nomli esselar ham o‘rin olgan.

Kitobda berilgan suratlar shoir ijodiy faoliyatining turli davrlarini aks ettiradi. Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Andrey Voznesenskiy, Aleksandr Faynberg kabi taniqli adiblar tomonidan bildirilgan dil so‘zlari, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovning tahliliy maqolasi hamda Nikolay Ilinning samimiy kuzatuvlari o‘quvchilarning Sirojiddin Sayyid ijodi bo‘yicha tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Asarlarni Aleksandr Faynberg, Nikolay Ilin, Nigina Saidova, Mixail Sinelnikov, Yuliy Pokrovskiy, Rifat Gumerov, Shahlo Qosimova, Nodira Holiqova kabi tarjimonlar rus tiliga mahorat bilan o‘girgan.

Kitob O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan nashrga tayyorlangan.

Ikrom ISKANDAR


MULOHAZA

QODIRIYNING “galateya”si



Insoniyat tarixida ijodkorning o‘zi yaratgan asariga oshiq bo‘lishi, sevib qolishi hodisasi Pigmalion nomi bilan bog‘lanadi. Ko‘hna yunon afsonalariga ko‘ra, Kipr orol-davlati shohi Pigmalion usta haykaltarosh ham bo‘lgan. U marmardan go‘zal ayol – Galateya haykalini yasaydi va unga oshiq bo‘lib qoladi. Bu obraz dengizning tinch, osuda holatini anglatadi. Ushbu haykalda mujassam bo‘lgan go‘zallik esa san’atkor qalbini junbishga keltiradi va tinmay nola qilgancha, muhabbat ilohasi Afroditadan haykalga jon bag‘ishlashini iltijo qilaveradi. Afrodita istakni bajargach, Pigmalion Galateyaga uylanadi.

Ingliz dramaturgi Bernard Shou 1912-yili “Pigmalion va Galateya” afsonasi asosida zamonaviy komediya yaratadi,



unga yangicha talqin baxsh etadi. Uning talqiniga ko‘ra, Londondagi professor qishloqdan kelgan oddiy gul sotuvchi qizni oliy tabaqaga xos ayollar darajasiga loyiq qilib tarbiyalashga kirishadi va oxiri uni sevib qoladi. Ammo oddiy qiz oliy tabaqa ayolga aylana borgan sari ehtiyojlari va talablari ham shunga yarasha osha boradi va ham ustozi, ham umr yo‘ldoshiga aylangan professorni juda mushkul muammolarga duch qilib qo‘yadi.

Ijodkor o‘zi yaratgan obrazlarga oshiq bo‘lib qolishi mumtoz adabiyotimiz namoyandalari ijodida ham uchraydi. Hazrat Alisher Navoiy “Layli va Majnun” dostonini “yig‘lay-yig‘lay tugattim oxir” deya yakunlaganini eslang. Yoki Fuzuliy “Layli va Majnun” dostonida har ikkisini ham shoirga aylantiradi va o‘zi ularning o‘rniga ishqiy g‘azallar yozadi.

Abdulla Qodiriy mashhur romanida Kumush obrazini ideal darajada tasvirlashga intiladi. Adib o‘zining ma’naviyatidagi eng yaxshi qirralarni Otabek va Kumushga taqsimlashda ham bu sezilib turadi. Aytish mumkinki, Otabekdan Kumushni qizg‘ongan paytlaridagi hisni adib, ayniqsa, Mirzakarim qutidorning shom payti Toshkentdan yetib kelgan Otabekni ostonadan haydab solishida ishlatib yuboradi. Voqealar rivojida Kumushni o‘limga hukm qilganiga chiday olmagan adib qon yig‘laydi. “Bir kuni otam qo‘lyozma ustida yig‘lab o‘tirganini ko‘rib, nima bo‘ldi, deb so‘radim. “Kumush o‘ldi!” – dedi otam” (Habibulla Qodiriy, “Otam haqida”).

Shu joyda Najmiddin Kubro qalamiga mansub ruboiyni eslash o‘rinli bo‘lardi:

Bir kun ko‘rasan, jon tanimdan ketgan,
Boshimga fig‘on chekib xaloyiq yetgan.
Koshki kelib boshimda o‘tirsang, aytsang:
O‘ldirgan o‘zim, o‘zim pushaymon etgan.

Olloyor BEGALIYEV

TARIX VA BUGUN UYG‘UNLIK KASB ETGAN FILM

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida 2026-yil 5-fevralda qabul qilingan qaroriga muvofiq, joriy yilda buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san’at homiysi bo‘lgan ajdodimiz xotirasiga bag‘ishlangan ko‘plab tadbirlar bo‘lib o‘tmoqda.

Jumladan, aprel oyida Ispaniya Qirolligining poytaxti Madrid shahrida O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton ssenariysi asosida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, rejissyor Yolqin To‘ychiyev tomonidan suratga olingan “Ulug‘ amir va donna Mariya” nomli yangi tarixiy-badiiy filmning taqdimot marosimi o‘tkazildi. Kartina xorijiy tomoshabinlarning katta qiziqishi va e’tirofiga sazovor bo‘ldi.

Mamlakatimizning Madriddagi elchixonasida ikki davlat kinosan’atkorlarining uchrashuvi ham tashkil etilib, unda kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan qo‘shma ijodiy loyihalar ham muhokama qilindi.

Xususan, Amir Temur kabi betakror shaxslarning badiiy siymolarini yaratish orqali yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratildi. Uchrashuvda ispaniyalik taniqli kinossenarist, rejissyor va prodyuser Alexandro Olivera ham ishtirok etdi.

Quyida uning toshkentlik hamkasblari tomonidan yaratilgan mazkur film haqidagi fikr-mulohazalarini e’tiboringizga havola etamiz.

* * *

– Avvalambor, Madriddagi “Palacio de Hielo” kinoteatrida namoyish etilgan “Ulug‘ amir va donna Mariya” filmining premyerasiga taklif qilinganim uchun minnatdorlik bildiraman.

Taqdimot marosimi kinokartinaning yaqqol bo‘rtib turgan badiiy va texnik xususiyatlarini, shuningdek, bunday katta ko‘lamdagi tarixiy voqelikni ekranda jonlantirishdek muhim vazifani amalga oshirgan jamoa mehnatini munosib baholash uchun menga imkoniyat tug‘dirdi.

O‘zbekistonga, uning qadimiy tarixi va qahramonlarini sharaflashga bag‘ishlangan ushbu bayramona kunda o‘z taassurotlarimni asar ijodkorlari hamda o‘zbek jamoatchiligi vakillari bilan o‘rtoqlashish meni, albatta, quvontiradi.



Mazkur fikr-mulohazalardan asosiy maqsad – filmning yutuqlarini e’tirof etgan holda, uning xalqaro ahamiyatini yanada kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan alohida jihatlariga e’tibor qaratishdan iborat.

Filmning dramatik qurilishi yagona personaj – Mariya siymosi vositasida ikki davriy qatlamni o‘zaro birlashtiradi. Bu ijodiy topilma o‘z navbatida ssenariy yechimining muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday badiiy usul bosh qahramon bosib o‘tgan olis va mashaqqatli yo‘lga qo‘shimcha ramziy ma’no yuklagan holda, uning vizual jihatdan tiniq, yorqin va jozibador zamonaviy obrazini Samarqand muhiti bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi.

Asrlar o‘rtasidagi vaqt evrilishlari film to‘qimasiga tabiiy ravishda singdirib yuborilgan bo‘lib, bu holat uzoq o‘tmish va bugungi hayot voqeligi uyg‘unlik kasb etgan manzaralarda, ayniqsa, to‘laqonli namoyon bo‘ladi, hikoya tarzining konseptual ruhiy-hissiy ko‘lamini yanada kengaytiradi.

Butun film davomida rejissyorning badiiy ifoda yo‘sini va uning botiniy ohangini mahorat bilan boshqara olish iste’dodi yaqqol sezilib turadi. Ekshn-sahnalarning “uzun” planlar yordamida ta’sirchan usulda talqin etilishi rejissyorning murakkab postanovkalar ustasi ekanidan, uning badiiy makonni tasvirlashda aniq-ravshan tafakkur yurita olishi, har bir sahnaning ichki ritmini nozik his qila bilish salohiyatidan dalolat beradi. Boz ustiga, filmning vizual konsepsiyasi qiziqarli shakl-shamoyillardan foydalanish, xususan, shisha va oyna vositasida qahramonlar qiyofasi yoki voqea-hodisalarning takroran aks ettirilishi orqali tasvirning qo‘shimcha talqinlarini yaratishga imkon tug‘diradi.

Xorijiy tomoshabinlar talabi va saviyasi bilan baholaganda, filmning xalqaro aktyorlar tarkibi uni chet ellarda, jumladan, ispan tilli mamlakatlarda keng tarqatish uchun katta qiziqish uyg‘otishi tabiiy.

Kartinaning montaj ishlari ham mohirona bajarilganini qayd etish lozim. Filmda “uzun” planlarning uzluksizligi va ularning ichki ruhiyati – botiniy muhiti yetarli darajada yaxshi saqlangan. Bu esa tasviriy barqarorlik va ifodaviy yaxlitlikni ta’minlab, kartinaning butun dramatik tadriji mobaynida tomoshabinning unga bo‘lgan diqqat-e’tiborini bir zum bo‘lsa-da, susaytirmaydi.

Kinofilmdagi vizual effektlar ishonarli chiqqan, bir qator epizodlarda ular kishiga alohida ta’sir ko‘rsatadi. Yildirim Boyazid bilan bo‘lib o‘tgan ulkan muhoraba oldidan piyoda askarlar va suvoriylarni jangga tayyorlash sahnalari shular jumlasidandir. Ushbu lavhalarda qo‘llanilgan raqamli texnologiya unsurlari sodir bo‘layotgan voqealar ko‘lamini epik shaklda ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Asar musiqasi voqealar rivojiga xalal bermasdan, aksincha, uning ma’no-mazmunini badiiy jihatdan to‘ldirishga harakat qilgani va shu tariqa o‘z dramatik vazifasini to‘liq ado etganini ta’kidlash joiz. Faqat ayrim o‘rinlarda epik musiqa imkoniyatlaridan kengroq foydalanish hal qiluvchi epizodlarning hissiy kuchi va tomoshabinga ko‘rsatadigan ta’sirini oshirishi mumkin edi.

Filmning e’tiborga loyiq jihatlaridan yana biri – uning badiiy-tashkiliy postanovka qismi bilan bog‘liq. Rang-barang suratga olish maydonchalari, tarixiy davrga oid manzaralar, libos va rekvizitlarning to‘g‘ri va oqilona tanlangani, ommaviy sahna ishtirokchilarining sa’y-harakatlari uyushqoqlik bilan tashkil etilgani – bularning barchasi yuksak, to‘laqonli vizual olam uchun ishonchli zamin yaratgan. Bu boradagi badiiy yechimlar asarning ko‘lami va miqyosi, loyihaning puxta o‘ylangani, o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yganini tasdiqlabgina qolmasdan, filmni xalqaro darajadagi yirik tarixiy postanovkalar qatoriga olib chiqadi.

Mening bu mulohazalarim filmning ilk namoyishidan so‘ng tug‘ilgan fikrlar bo‘lib, ular, albatta, dastlabki taassurotlar mahsuli, xolos. Uni takroran, sinchiklab tomosha qilish esa tahlilni chuqurlashtirish, kartinaning yangi qirralarini kashf etish imkonini berishi shubhasiz.

Muxtasar aytganda, umumiy xulosa ijobiy: salmoqli ishlab chiqarish salohiyatiga tayanib, katta orzu-intilishlar bilan, o‘ziga xos betakror bir uslubda yaratilgan bu asar murakkab audiovizual loyihadir. Shu bois “Ulug‘ amir va donna Mariya” deb nomlangan ushbu ajoyib filmning ijodiy va texnik jamoasini, kartinaning dunyoga kelishiga hissa qo‘shgan O‘zbekiston kinematografiyachilarini chin dildan tabriklash uchun barcha asoslar mavjud.

Alexandro OLIVERA,
kinossenarist,
rejissyor va prodyuser

Ispaniya, Madrid

TALQIN

JOYSNI ANGLASH

Badiiy ijodning sirli, ong va tafakkur sarhadlaridan keng, goho biror “izm” bilan o‘lchash mushkul izlanishlar sohasi ekanini asoslashga hojat yo‘q. Qalamkashlik zahmatidan jindek xabardor kishi bu sohani qismati sifatida e’tirof etishdan boshqa asos topolmaydi. Mohir adib, serzavq hikoyachi, qalbi-o‘yi betakror falsafiy-badiiy g‘oyalar va tasvirlarga mushtoq Xurshid Do‘stmuhammad “Joys” roman-essesida badiiy ijod sirlarini qahramoni misolida tahlil-tadqiq etgan. Bu dastlabki urinish emas, ammo “Ajoyib kishilar hayoti” majmuasidan joy olishi mumkin izlanish mahsulidir.



Viktor ALIMASOV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Mashhur irland adibi Jeyms Joys tarjimayi holini yozish qiyin emas, lekin uning badiiy olamini anglash, tasvirlash va baholash mushkul. Joys XX asr boshlarida Yevropada boshlangan “intellektual inqilob”ga oid barcha muvaffaqiyat va ziddiyatlarni o‘zida mujassam etgan ijodkordir. Tinmay ko‘chib, yon-atrofdan bezib va yon-atrofini bezdirib yashash, alam-u g‘azablarini jilovlay olmaslik, do‘st tutinib, darrov undan yiroqlashish, badfe’llik, dilozorlik, qo‘pollik, to‘nglik, dimog‘dorlik... Rassel unga “men uchratgan yosh yovvoyilar orasida eng yirtqichi ekan”, deb baho bergandi.


“Joys” asarida yozilishicha, “Jeyms birovning maslahatiga quloq soladigan odam emasdi. U “jamiyatni o‘zining dushmani, raqibi deb e’lon qiladi. Uni hech kim oldiga solib quvmayotgani bilan hisoblashmaydi, balki o‘zini o‘zi quvib solish va ko‘ngilli ayriliq kayfiyatini vujudga keltiradi, avj oldiradi”. Axloqshunoslar uni qoralashi turgan gap, ammo adib undan adiblik mahoratini qidiradi: “Hayotda birdan bir najot – yozishda, ijodda degan aqidaga yopishib oladi. “Yozish – kurash va yashash demakdir!” degan shiorni boshi uzra ko‘taradi. Ijodni hayot-mamot maqomida ulug‘laydi”.

Go‘daklik paytida uyg‘ongan taassurot, shakllangan xislat umr so‘qmoqlarida mutlaq unut ketmaydi. Joys “o‘y odami, xayol odami” edi. O‘y-xayollarga berilish unga zavq-u shavq, kishilar xatti-harakatlarini kuzatishga, ularni baholashga asos berardi. Shu asnoda, ongiga, tasavvurlariga joylashganlarini qog‘ozga tushirish, yozish bilan band bo‘lardi. O‘quvchi paytida shakllangan bu xislat Joysda badiiyatga, yozishga muhabbat uyg‘otgani aniq. Mutaxassislar e’tirofiga ko‘ra, har safar Joys insholari uchun kollej rahbariyatidan mukofot olganida, ruhi erkinligiga yaqin mashg‘ulot bilan shug‘ullanayotganiga iqror bo‘lar, mukofot pullarini oilasiga, onasiga berayotganida esa buyuk ishlarga qodir, hatto insoniyatga kamolot yo‘llarini ko‘rsatayotgan najotkor sezardi o‘zini.

Bu ta’rif-u tavsif psixotahlil nuqtayi nazaridan juda muhim, chunki keyinchalik hayotiy maqsadiga, idealiga aylangan ushbu ichki aniqlovchi tuyg‘u Joysda oilaviy qadriyatlarga sadoqatni shakllantirdi. Joys yigirma ikki yoshida Nora Barnaklga uylanadi va oilasiga sodiq bo‘lishga ahd qiladi. Ahd boshqa, turmush mashaqqatlariga chidab, turli sarguzashtlardan uzoq, tiyilib yashash boshqa. Mudom muhtojlik, ish va osoyishtalik izlab shaharma-shahar, yurtma-yurt kezish, oilaviy mashmashalarga qaramasdan, Joysda oilaga, ayoliga sodiqlik tuyg‘usi mustahkam edi. Uning darbadarligiga chidagan oilasi sabr-toqat bobida Joysga ibrat edi. Bu borada Xurshid Do‘stmuhammad ba’zi bir holatlarga ishora qiladi, ammo ularni kengroq tasvirlashni lozim topmaydi. U ong osti sezimlarini badiiy ijod tomonga yo‘naltiradi. Kitob o‘qish, yozish psixotahlil o‘rganadigan, qiziqadigan ong osti voqeliklarimi? Ular inson tabiatiga singib ketgan instinktlarmi?

Ha, ayrim bir shaxslar u yoki bu narsani tabiiy-psixologik borlig‘i sifatida ardoqlashi, jonini jabborga berib, telbalarcha uni himoya qilishi mumkin. Jeyms Joys shunday shaxsga o‘xshab ketadi. Unda Z.Freyd, K.Yung nazarda tutgan ong osti fenomenining badiiy ijodga nima aloqasi bor?

Jeyms Joys “Uliss” romanida qo‘llagan uslub (agar uni uslub deyish mumkin bo‘lsa), ya’ni mavhumlik, chalakam-chattilik, aralash-quralashlik, ongni chalg‘ituvchi nomantiqiylik, mayda-chuydalar tasvirini badiiy ongga taalluqli deyish to‘g‘rimi? Chamasi, biz ong ostidagi ongning ongsizligini hisobga olmay, uni ongga taalluqli voqelik sifatida talqin etamiz. Ong ostidagi ong ongga moyil bo‘lishi ham mumkin, uning ziddi bo‘lishi ham mumkin. Xurshid Do‘stmuhammad ong ostini ham, uning ostidagi ongning zid tomonini ham badiiy ijodga taalluqli, ijobiy narsa sifatida taqdim etadi. Yo‘q, ong ham, ong osti ham, ong ostidagi ong ham zid voqeliklardir, ushbu zid tomonlarni hisobga olmaslik psixotahlilni tor tushunishga olib keladi. Afsuski, psixotahlil asoschilari Z.Freyd va K.Yung ong va ong ostini tadqiq qilganlar, ammo ular uchinchi qatlamni, ya’ni ong ostidagi ongni nazarda tutmaganlar. Ular hayot paytda psixotahlil hozirgi davrdagidek chuqur tadqiqotlarga ega emasdi.



Muallif “Uliss”ni anglash” bo‘limida “Uslub – muallifning o‘zi” degan qoidadan kelib chiqib, Joys uslubi haqida “unda tugal fikr, tugal xulosa yo‘q”, u “hayoti davomida nimani ko‘rgan, bilgan, eshitgan bo‘lsa, hammasini asar syujetiga tortaveradi. Muallif uchun nokerak voqea yo‘q, nokerak so‘z yo‘q, behuda o‘y-xayol, kechinma yo‘q”, “u o‘ziga qadar jahon adabiyotida uchraydigan birorta tasvir uslubidan qanoatlanmagan. Qanoatlangan taqdirda ham qabul qilmagan. Hech bir uslubni tan olmagan... yangicha tasvir uslubini topish, kashf etish yo‘lidagi mashaqqatlardan tap tortmagan”, “jahon xalqlari adabiyoti butkul boshqa o‘zanga ko‘chmog‘i zarur, deb hisoblagan”, degan xulosalarni bildiradi.

Ha, “Uliss”dagi badiiy uslubni topish oson emas. Aralash-quralash voqealar, mantiqsiz lavhalar, ongni chalg‘ituvchi tasvirlar, iboralar, so‘zlar... uch bet o‘qimay bezasiz. Go‘dak-musavvirning turli ranglarni chaplab tashlagan, anglamagan, hissiyotga erk bergan “qoralama”lari tuyuladi ular. Xo‘sh, unda adabiyotshunoslar ulug‘layotgan Joysda nima bor? G‘ayrimantiqiy lavhalar va “so‘z o‘yinlari”dan iborat “Uliss” nimasi bilan yangicha uslubdagi asar bo‘lishi mumkin, degan savollar tug‘iladi. Badiiy asar yangicha uslub yaratish uchun bor tajribalardan voz kechishga qaratiladimi? Badiiy izlanishlar jarayonida adib o‘quvchisini nazarda tutmasligi mumkin, lekin bu oniy xayoldir. Bunday oniy va o‘tkinchi xayollar buyuk badiiy kashfiyot darajasida ulug‘lanishi kerakmi? Yo‘q, men ijod erkinligiga qarshi emasman, ba’zan adibning o‘zi uchun ham yozishidan, ba’zan oniy kechinmalar kashfiyotlarga turtki berishidan xabardorman. Lekin ijodkorning jamiyat va kelajak, ya’ni farzandlari, nevaralari oldidagi mas’ulligini unuta olmaymiz. Badiiy so‘z so‘z uchun yoki yangicha uslub uchun emas, balki insonni yanada insoniylashtirish uchundir.

E’tibor bering, bugun badiiy ijod sohasida mistika va irratsionalga berilish avj olib bormoqda. Tasviriy san’atda abstraktsionizm, syurrealizm, kubizm, avangardizm, she’riyatda modernizm, alirizm, antilirizm, prozada individualizm, mistisizm, fantastizm va giperintellektualizm kabi oqimlar paydo bo‘lmoqda. Afsuski, ulardan inson qalbi bilan bog‘liq olijanob g‘oyalarni topish amrimahol.

Joys ijodi Irlandiyadagi katolitsizmga, undagi mutaassiblikka qarshi chiqish bilan bog‘liq. Diniy mutaassiblik hurfikrlik va ijod erkinligiga qarshi turishini u bilgan, katolik cherkovi uni ta’qib etishi ham tabiiy xol edi. Bu uni yurtini tashlab ketishga, Yevropa bo‘ylab darbadar kezishga majbur qilgan. Nimagadir, biz Joysning shu harakatlaridan zarur ma’no-mohiyat qidirmaymiz. Undagi mujmallikni “noyob uslub”, iqtidor ataymiz.

Muallif “Uliss”ni o‘qib, undan mumkin qadar ko‘proq zavq tuyish uchun adabiy axborotimiz, adabiy savodxonligimiz qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha oz ekanini ta’kidlaydi: “Tafakkurimiz, tasavvurimiz, xotiramiz xazinasidagi adabiy bisotimiz-boyligimiz juda-juda g‘arib va hatto nochor ekanligini mardonavor tan olish Jeyms Joys asarlari mutolaasiga kirishgan har qanday kitobxon yuzma-yuz keladigan achchiq haqiqatdir”.

Lekin muallifning o‘zbek badiiy tafakkuridagi “bisotimiz-boyligimiz juda-juda g‘arib va hatto nochor” degan g‘arb modernizmidan saboq olishga undovchi da’vati e’tiroz uyg‘otadi. O‘zbek adabiyoti “bisoti-boyligi”da jahon badiiy tafakkuridan joy olgan asarlar yo‘qmi? Nima, hamma tushunarsizlik, mantiqsizlik, bema’nilik va uslubsizlik yo‘sinida ijod qilishi kerakmi? Achchiq bo‘lsa ham aytay, “ong oqimlari” bayrog‘i ostida ongni chalg‘ituvchi, mujmal va oxir-oqibatda irodasizlikka, ruhiy tushkunlikka yetaklovchi asar bizga namuna bo‘la olmaydi.


Jamiyatimiz taraqqiyoti uchun aql-u idrokni, intellektual kuchlarni rivojlantirishga undovchi g‘oyalar, asarlar, obrazlar kerak. Ushbu obyektiv talabni, albatta, muallif yaxshi biladi, bunga ishonchim komil, balki Joysning hayoti va ijodi tafsilotlari, ayniqsa, “Uliss” asari ta’sirida yuqoridagi mulohazalar uyg‘ongandir? Men barcha Joysdek izlanishi, “Uliss”dek asar yozishi kerak, deb hisoblamayman. Milliy adabiy jarayonlarni, “bisotimiz-boyligimiz”ni ular bilan mezonlash ham noto‘g‘ri. “Uliss”dagi ong oqimlariga taalluqli tasvirlardan oqilonalik izlash ham benaf. Bunday nostandart, noratsional voqelikning badiiy ijod sohasida uchrab turgani yaxshi, ammo u jahon badiiy tafakkuriga ham, milliy adabiyotlar ravnaqiga ham ibrat, namuna bo‘lolmaydi.

Xurshid Do‘stmuhammad o‘zbek kitobxonini ana shunday baholash qiyin bo‘lgan, murakkab va bahstalab yozuvchining hayoti va ijodi bilan tanishtirishga ahd qilgan ekan, muallifga va “Joys” asariga omadlar tilashimiz kerak. Ong va ong osti oqimlari tagida javohirlar ko‘p, ammo inson qalbini, hayotini go‘zal qilish uchun izlanish ulardan ko‘ra faxrlidir.

JAHON AYVONIDA

TRAMPNING MATBUOT KOTIBI ISHDAN KETMOQDA

AQSH prezidenti Donald Trampning matbuot kotibi Kerolayn Levitt o‘z lavozimini tark etishini X ijtimoiy tarmog‘ida e’lon qildi.



Bu voqeani Tramp Levitt bundan buyon ikki norasida farzandiga ko‘proq e’tibor qaratishni istayotgani bilan izohlagan. Joriy yilning mayida Kerolaynning ikkinchi farzandi Viviana dunyoga kelgan.

QUYOSH TO‘LIQ TUTILDI

12-avgust kuni kechqurun Yerning shimoliy yarimsharida to‘liq Quyosh tutilishi kuzatildi. Grenlandiya, Islandiya, Portugaliya va Ispaniyada Oy tomonidan to‘liq to‘silgan Quyoshni kuzatish imkoniyati yaralgan.



G‘arbiy Yevropaning yirik shaharlarida Oy Quyosh doirasini 85–95 foizgacha yopdi.

Kontinental Yevropa uchun to‘liq Quyosh tutilishi 1999-yildan beri birinchi marta sodir bo‘lgani sababli bu hodisa katta shov-shuvga sabab bo‘ldi.

HUKUMAT SAYTLARIGA HUJUM

Xitoy bilan aloqador xakerlar bir nechta sun’iy intellekt agenti yordamida Tayvan hukumat saytlariga kiberhujum uyushtirdi. Bu haqda “Financial Times” nashri kiberxavfsizlik bilan shug‘ullanuvchi Isroilning “Dream” kompaniyasi ma’lumotlariga tayanib yozmoqda.



Hujumni birinchi bo‘lib aniqlagan tadqiqotchilarning jurnalistlarga aytishicha, tajovuzkorlar ochiq kodli sakkiztagacha sun’iy intellekt agentidan foydalangan. Ular buzib kirish uchun vosita yaratgan muvofiqlashtirilgan kiberjamoa sifatida harakat qilgan.

Xitoy hukumati vakillari gazetaning izoh berish haqidagi so‘rovini javobsiz qoldirdi. Tayvan Raqamli texnologiyalar vazirligi esa ma’lumotlar maxfiyligini sabab qilib, ushbu buzg‘unchilik yuzasidan izoh berishdan bosh tortdi.

SEHR VA FOLBINLIK TAQIQLANADI



Tojikiston Din, an’ana va marosimlarni tartibga solish qo‘mitasi diniy marosimlarni o‘tkazishning yangi tartibini tasdiqladi. Endilikda bunday izdihomlarda qatnashishga rasman faqat vakolatli diniy xizmatchilargagina ruxsat beriladi. Bu haqda idora “Asia-Plus”ning so‘roviga yuborgan yozma javobida ma’lum qilgan.

Yangi tartib bir qator cheklovlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, jodugarlik, sehrgarlik va folbinlik bilan bog‘liq xizmatlardan foydalanish man etiladi.

XOTIRA AZIZ

Chinordek azim, daryodek toshqin



ADABIY DID MAKTABI

Katta avlodning adabiy-estetik qarashlari “Guliston” jurnali mutolaasi orqali shakllangan, desam, xato bo‘lmaydi. 1969–1980-yillarda nashrga taniqli adib, shoir va tarjimon Asqad Muxtor bosh muharrirlik qilgan. Jurnalning o‘z tarixi davomidagi eng gullab-yashagan davri ham shu o‘n yillikka to‘g‘ri keladi. Elimizning ardoqli ijodkorlari Abdulla Sher, Erkin A’zam, Xayriddin Sultonning xotiralari shundan guvohlik beradi.

Asqad Muxtorning faoliyati asosan muharrirlik vazifasida o‘tgan. Daryoday toshqin, tog‘day vazmin, chinordek azim bu inson tahrir bobida ikki damli qilichday keskir edi. Tahrirni mohir jarroh kabi yuksak mahorat va farosat bilan amalga oshirardiki, choki bilinmasdi.

Odatda, umri tahrirga baxshida ijodkorlarning shaxsiy ijodiy merosi mo‘jaz bo‘ladi. Chunki o‘zidagi xazinalarni boshqalarga ulashgan odam yana qayta to‘yinguncha, ko‘p vaqt ketadi-da. Biroq Asqad Muxtor o‘zbek adabiyotida eng sermahsul adiblardan biri hisoblanadi. O‘nlab roman va qissalar, yuzlab she’rlar, pyesalar va tarjimalar, umrining shomida, xastalik chog‘i qog‘ozga tushirgan “Tundaliklar” buning yorqin misoli. Xo‘sh, bunday sermahsullik siri nimada ekan? Javobi oddiy: Asqad aka to‘xtovsiz kitob o‘qir, tafakkur qilar va qat’iy ish tartibiga binoan ijodni ham yo‘lga qo‘ygandi.

Ustoz adib asarlarida ishlatgan so‘zlar shu qadar betakror, jarangdor va chuqur ma’noli bo‘lardiki, yon daftarimizga yozib qo‘ymaslikning iloji yo‘q edi. Ayniqsa, she’rlarida o‘zbek tilining boy xazinasini ko‘z-ko‘z qilarkan, bu til har qanday og‘ir falsafiy g‘oyalarni ham bemalol ifoda etishga qodirligini ko‘rsata bilardi. Biz so‘zni his qilishni ham aynan Asqad Muxtordan o‘rganganmiz.

CHINOR SOYASIDA

Inson hayotining qaysidir nuqtalarida o‘tgan yo‘lini bir qur ko‘zdan kechirish davrini boshdan o‘tkazar ekan. Nazarimda, bugun ayni shunday nuqtalardan birining ustida turgandekman. Ushbu gazetadagi salkam ellik yillik faoliyatimga nazar tashlar ekanman, ne-ne tabarruk zotlar bilan ishlaganim ko‘z oldimdan o‘tadi. Men yangi ishga kelgan 1978-yilda nashr “O‘zbekiston madaniyati” deb atalar, bosh muharriri Laziz Qayumov edi. Kamina musahhih sifatida ish boshlaganman.

1981-yili gazetaning nomi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” deb o‘zgarib, bir yil oldin “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” unvoniga sazovor bo‘lgan Asqad Muxtor bosh muharrir etib tayinlandi. Boshqalarni bilmadim-u, lekin men juda hayajonda edim. Axir, Asqad Muxtor sevimli yozuvchilarimdan biri edi-da. Ba’zi asarlarini bir necha marta o‘qigandim. Xullas, O‘zbekistondagi birinchi haftalik adabiy gazetaga katta yozuvchi rahbar bo‘lganidan bir quvonsam, shunday odamning rahbarligida, uning fikrlari, maslahatlaridan bahramand bo‘lib ishlashimdan yana ham xursand bo‘lardim.

Bir qur tanishuvdan so‘ng qizg‘in ish boshlanib ketdi. Ochig‘ini aytaman, jamoada ishlayotganlarning hammasi ham bundan xursand emasdi. Ayniqsa, jamoa tarkibida, bo‘limlar faoliyatida, ishlar taqsimotida o‘zgarishlar boshlangach, bu holat yaqqol ko‘zga tashlandi. Chunki gazetaning nomi o‘zgaribgina qolmay, xodimlarga talablar ham kuchaya boshlagandi. Bir maromda ishlab kelayotgan jamoa oldiga katta va jiddiy talablar qo‘yila boshlagach, o‘zgarishlar ba’zilarga yoqmay qoldi. To‘g‘ri, jamoaga yangi xodimlarni qabul qilish, kimlarnidir bo‘shatish bilan bog‘liq jarayonlar hammamizni biroz shoshirib qo‘ydi. Kimdir buni to‘g‘ri qabul qildi, kimlargadir yoqmadi, ba’zilar ochiqdan ochiq e’tiroz yo‘liga o‘tdi. Hatto, janjal ko‘tarishgacha borganlar ham bo‘ldi.

Odatiy hollarda hamma ham o‘z vazminligini namoyon eta oladi. Lekin ulug‘larning darajasi aynan g‘azab kelganda o‘zini qanday tutishida zohir bo‘lar ekan. Men buni Odil Yoqubov va Asqad Muxtor misolida ko‘rganman.

Tahririyatdagi navbatdagi yig‘ilishda o‘z aybiga binoan ishdan bo‘shatilgan bir xodim og‘zi ko‘pirib baqir-chaqir qila boshladi. Hech kimning gapini quloqqa oladigan emas. Hamma toqat qilib o‘tirgandi, hatto, Asqad aka ham sukutda edi. Birdan haligi erkak jim bo‘lib qoldi-da, zahar sochishga chog‘langan ilonday bir tebranib, “Butun boshli o‘zbek adabiyoti gazetasining kuni senga qoldimi?!” deb yubordi. Bu “zahar” to‘g‘ridan to‘g‘ri bosh muharrirga qaratilgan bo‘lsa-da, hammamizning yuragimizni kuydirib o‘tgandi. Xonaga qo‘rg‘oshinday og‘ir sukut cho‘kdi. Ketarda alam safrosini sochib olgan xodim ham jimib qoldi. Bir payt Asqad aka uning ko‘ziga tik qaradi-da, “Gapingiz tugagan bo‘lsa, ketishingiz mumkin. Biz yig‘ilishni davom ettiramiz”, deb yangi sonning keyingi sahifasini ochdi...

Aynan shu holatda haqoratga sukut bilan javob qaytargan ustoz Asqad Muxtordagi yuksak madaniyatga, olijanoblikka, sabr-toqatga hayron qolgandim. U kishining yurish-turishi, madaniyati, sokin so‘zlash ohangi, og‘ir-vazminligi ko‘plarga o‘rnak bo‘larli edi.

Asqad akaning yana bir fazilati bor edi: ko‘p hollarda xodimlarning xonasiga biror savol yoki maslahat bilan o‘zi kirib borardi. Ustoz nihoyatda kamtarin inson edi.

Ustozning o‘zi azim chinor edi. Aynan Asqad Muxtor tiynatida, surati va siyratida chinorning bardoshi mujassam bo‘lgan. Va asarlari ham chinor kabi umrboqiylik kasb etib kelmoqda.

MAHZUN XAYRLASHUV

Afsuski, ustoz gazetada uzoq ishlamadi. Rahbar bo‘lganidan bir yarim yil o‘tar-o‘tmas, bo‘shash haqida ariza yozgani ma’lum bo‘ldi. Shunda yurak yutib huzuriga kirgandim. Ustozdan gazetani tashlab ketmaslik, arizani qaytarib olishni iltimos qilganimda, shunday degandi: “Rahmat. Jurnal chiqarib yurgan odam edim. Gazetachilik mening ishim emas ekan”.

Aslida, Asqad Muxtor o‘ziga topshirilgan vazifani halol, vijdonan bajarib, yangi nomdagi gazetani har tomonlama yuksak saviyada o‘quvchilarga taqdim etishga, bitta nashrni katta yo‘lga olib chiqib, to‘g‘ri yo‘naltirishga muvaffaq bo‘lgan jur’atli, qat’iyatli, mard inson edi. O‘sha davr “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining sahifalarini bir qur varaqlagan odam bunga ishonch hosil qilishi turgan gap.

Bu o‘tkinchi dunyoda hech kim va hech narsa abadiy emas. Insondan faqat uning yaxshi amallari, foydali ishlari xotira bo‘lib qoladi. Sokin daryoning tagi dolg‘ali bo‘ladi, deydilar. Bu gapning ayni haqiqat ekanini sevimli yozuvchimizning hayoti isbotlab turibdi.

Ustozni kuzatish marosimidan keyin hamkasblar mashinagacha hamroh bo‘ldik. O‘shanda barchaning ichidan nimadir uzilganday bo‘ldi. Asqad aka guldastani ushlagancha, mashina oynasidan qo‘l silkib ketganlari ko‘z oldimda muhrlanib qoldi...

* * *

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda ulug‘larimizga tosh otayotgan “mergan”larni ko‘rib, novator shoir Asqad Muxtorning ushbu she’ri yodimga tushdi:

“Pop” etib naqsh olma tushdi yo‘lakka,
Shaffof chehrasida nur taram-taram.
Lim-lim shira to‘la, chiroyli, katta,
Butun yoz quyoshi unda mujassam.
Shu payt qarg‘a qo‘ndi yoniga sekin,
Alang-jalang boqdi, shoshmadi,
Iflos tumshuq bilan
Tirsillama etin
Omonsiz cho‘qilab yulqiy boshladi.
Go‘zallikni ko‘rmas, naq ko‘r singari,
Xushbo‘y shirada ham ta’m sezmaydi u.
Faqat olma qurtin ko‘rar ko‘zlari,
Undan faqat qurt izlaydi u.

Gulchehra UMAROVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

MOZIYDAN SADO

AYBSIZ AYBDORLAR



Yigirmanchi asrdan bizga ko‘p saboq qoldi. Ikkita jahon urushi xunrezliklari, Stalin boshchiligida 1937–1953-yillari amalga oshirilgan qonli repressiya oqibatlari hamon necha ming-ming oilaga bitmas yaraday azob beradi. Odamzod shunday qirg‘inlarga duchor bo‘lsa-da, adolatli zamonlar kelishiga ishonib yashaydi. Bu ishonch bundan keyin ham so‘nmaydi.

1937-yilning 31-iyulida SSSR Ichki ishlar vazirligi narkomi N.I.Yejovning “Sobiq quloqlar, sovetlarga qarshi jinoyatchi unsurlar va boshqa yot elementlarni xalq dushmani sifatida repressiya qilish operatsiyasi to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilinadi. Bu mash’um hujjatga ko‘ra, siyosiy qatag‘on O‘zbekiston, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Turkmanistonda shu yilning 5-avgustidan, Uzoq Sharq, Krasnoyarsk o‘lkalari va Sibirda 10-avgustdan boshlanishi belgilab qo‘yilgandi. Shunday bo‘ladi ham. Favqulodda komissar – chekistlar, NKVD xodimlari taniqli diniy arboblar, o‘qimishli ziyolilar, tadbirkorlar bilan birga, ro‘zg‘orini amal-taqal qilib tebratayotgan oddiy kasb egalarini sudsiz-so‘roqsiz qamoqqa ola boshlaydi. Madrasada ta’lim olganlar, uyida Qur’oni Karim, arab alifbosida yozilgan kitoblarni saqlaganlar, omborchi, savdogar, kunbay ishlaydigan mardikor, choyxonachi, mirob, hisobchi, tabelchi, kosib, duradgor, do‘kon egasi, pochta xodimi, tug‘ilgan qishlog‘idan boshqa joyga hatlab chiqmagan dehqonlarga “chet el razvedkasining agenti”, “inqilobga qarshi targ‘ibotchi”, “sovet tuzumini ko‘rolmaydigan yot unsur”, “xalq dushmani” degan tuhmat tamg‘alari bosiladi.

Qamoqqa olishning kunlik, oylik rejasini bajarmaganlar jinoyatchilarga yon bosganlikda ayblanadi. Shu yovuzlikning faol ishtirokchilaridan birining boshida qatorasiga ikki oy “xalq dushmanlari”ni fosh qilishda sustkashlik qilgani (belgilangan rejani bajarmagani) uchun “qora bulut” paydo bo‘ladi. Jonini asrash uchun u... tug‘ishgan akasini sotadi. Komsomol o‘g‘il otasiga tuhmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi yuz mingdan ortiq mahkumlar orasidan 1030 nafar nohaq jabrlangan yurtdoshlarimizni oqladi.

* * *

Yaqinda Bishkek shahrida xizmat safarida bo‘lganimizda, “Ata Beyit” memorial kompleksi rahbari, tarix fanlari doktori Bolot Abdurahmonov yozuvchi Begijon Ahmedov bilan birgalikda nashrga tayyorlagan noyob xotira kitobini bizga sovg‘a qildi. Ushbu kitob qatag‘on domiga tortilgan o‘zbek millatiga mansub mingga yaqin qirg‘izistonlik qurbonlar xotirasiga bag‘ishlangan. Kitobni varaqlar ekanman, o‘zim tug‘ilib o‘sgan, avvalgi nomi Mazor, hozir Safed Bulon deb ataladigan qishloqda 1938-yil 3-mart kuni qamoqqa olinib, shu kuniyoq hukm o‘qilgan besh mulla va yana uch qishloqdoshimizning ism-familiyasiga ko‘zim tushdi:

Arxiv №10936

Akunbayev Teryubay (To‘raboy bo‘lsa kerak). 1864-yili Qirg‘iziston SSR Karavon rayon, Mazor qishlog‘ida tug‘ilgan. Shu qishloqda yashagan. Millati o‘zbek. Mulla. 1938-yil 3-mart kuni qamoqqa olingan. Shu kuni axloq tuzatish lagerida 8 yil ishlashga hukm qilingan. 1989-yil 27-aprelda oqlangan.

Aripov Abdurahmon. 1881-yili Qirg‘iziston SSR Karavon rayon, Mazor qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Shu qishloqda yashagan. Mulla. 1938-yil 3-mart kuni qamoqqa olingan. Shu kuni axloq tuzatish lagerida 10 yil ishlashga hukm qilingan. 1989-yil 27-aprelda oqlangan.

Zakirov Zait. 1886-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. O‘sh oblast Karavon rayoni, Mazor qishlog‘ida yashagan. Millati o‘zbek. Mulla. 1938-yil 3-mart kuni qamoqqa olingan. Shu kuni axloq tuzatish lagerida 10 yil ishlashga hukm qilingan. 1989-yil 27-aprelda oqlangan.

Zaripov Abduaziz. 1890-yili Karavon rayoni, Mazor qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Shu joyda yashagan. Mulla. 1938-yil 3-mart kuni qamoqqa olingan. Shu kuni axloq tuzatish lagerida 10 yil ishlashga hukm qilingan. 1989-yil 27-aprelda oqlangan.

Normirzayev Abduhaydar. 1868-yili Mazor qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Mulla. 1938-yil 3-mart kuni qamoqqa olingan. Shu kuni axloq tuzatish lagerida 8 yil ishlashga hukm qilingan. 1989-yil 24-aprelda oqlangan.

Ormonov (O‘rmonov) Mulla Jayir. 1895-yili Mazor qishlog‘ida tug‘ilgan. 1938-yil 3-mart kuni qamoqqa olingan. Shu kuni axloq tuzatish lagerida 10 yil ishlashga hukm qilingan. 1989-yil 27-aprelda oqlangan.

Arxiv №11949

Mamatxonov Saidahmad. 1881-yili Kosonsoyda tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Mazor qishlog‘ida yashagan. Imom. 1930-yil 8-dekabrda qamoqqa olingan. 1931-yil 11-fevralda “troyka” O‘sh shahrida otuvga hukm qilgan. 1989-yil 26-aprelda oqlangan.

Xamitov Sodiq. 1925-yili Olabuqa rayon Mazor qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Shu qishloqda yashagan. Kolxozchi. 1942-yil 29-yanvar kuni qamoqqa olingan. 1942-yil 11-noyabr kuni 5 yil muddat axloq tuzatish lagerida ishlashga hukm qilingan. 1989-yil 30-mart kuni hukm bekor qilingan.

Uch-to‘rt jumlalik bu uzuq-yuluq ma’lumotlarni o‘qir ekansiz, umri xazon bo‘lganlarning aybi nima edi, degan savol tug‘iladi. Bitta qishloqdan bir vaqtning o‘zida bir necha kishini qamoqqa olishga nima sabab bo‘lgan? Ular chindan ham “axloq tuzatish lagerlari”ga jo‘natilgan bo‘lsa, yillar davomida birortasidan nega “yilt” etgan xabar kelmagan? Lagerlarning nomi nega yashirilgan? Bu savollar hanuz javobsiz qolmoqda.

* * *

Xotira kitobidagi “Zakirov Zait” degan nomga duch kelganimda vujudim titrab ketdi. Ha, bu mahkum ilmli, saxovatli, bugungi ibora bilan aytganda, xalq orasidan chiqqan diplomat mulla Zokirning o‘g‘li – Zoit xalfa.

Mulla Zokirdan el-yurtda yaxshi xotira qolgan. Qishlog‘imizdagi “Shoh Fozil maqbarasi” Safed Bulon qishlog‘i tasarrufida bo‘lishi uchun u kishi Oxunboboyevning oldiga borib, tegishli hujjatga qo‘l qo‘ydirib kelgan ekan. Ba’zi keksalar mulla Zokir avval ham ayni shu masalada Qo‘qonga borib, Xudoyorxon qabuliga kirgan, deyishadi. Bu gaplarni men mulla Zokirning o‘g‘li Eshonxon buvadan ham eshitganman.

MILLAT FIDOYILARI

RIZOIY FOJIASI

Yigirma yillik faoliyatini muallimlikka bag‘ishlagan, o‘zbek tilidagi birinchi “Hikmat” (fizika) va kimyo darsligi muallifi, Turkiston davlat universiteti qoshidagi fizika laboratoriyasini boshqargan xalq professori Husanxon Niyozov (Niyoziy) ma’rifatparvar jadidlardan biridir.

U 1895-yili Andijon shahrining Birlik dahasida tug‘ilgan. Bobosi Muhammadxon Niyoz o‘g‘li, otasi Matmusa (Muhammad Musa) asli Andijon viloyatining Oltinko‘l tumanidan, onasi Hanifa otin ziyoli ayollardan edi. Otasi qariyb o‘ttiz yil mudarrislik qilgani bois, uning bolalik va o‘smirlik yillari diniy muhitda kechgan. 1905-yildan boshlab maktab ta’limini olgan, Andijondagi madrasada 1915-yilgacha tahsil ko‘rib, arab va fors tillarini puxta o‘zlashtirgan. XX asr boshlariga kelib, jadid g‘oyalari, xususan, “Usuli jadid” maktablaridagi yangi o‘qitish usullari bilan tanishgan.

Uning jiyani, professor Nohidxonning xotirlashicha, quyidagi voqeani unga momosi – Husanxonning onasi so‘zlab bergan: “Bir kuni amaking Husanxon madrasadan qaytib keldi-da, qo‘lidagi o‘zbek va arab tillarida yozilgan kitoblarni so‘rining ustiga tashladi va ulardan bittasini tanlab olib qo‘ltig‘iga qistirdi. Qani o‘g‘lim, qo‘lingdagi kitobingni ber-chi, deb olsam, uning muqovasida “Usuli jadid” deb o‘zbek tilida yozib qo‘yilibdi. Muallifi esimda yo‘q. Xullas, men o‘g‘limga savol berishga tushdim. Shunda yaqin ikki yillik madrasadagi o‘qishi davomida Husanxon hech narsa o‘rganolmaganini ta’kidlab, qo‘shimcha qildi: *“Aya, siz endi meni majbur qilmang, men madrasangizda boshqa o‘qiyolmayman. Shu ikki yil ichida oila sharoitida dadam bilan siz menga bergan saboqlaringizga aqalli bir so‘z ham qo‘shilmadi. O‘zingiz aytganingizdek, ularning bolalarni o‘qitish-o‘rgatish uslublari bundan yuz yillar avval Samarqand, Buxoro va Urganch madrasalaridagi o‘qitishlarning ko‘lankasiga ham o‘xshamaydi. Agarda shu ilm dargohlarida ta’lim olgan bizning buyuk bobolarimiz jahon miqyosidagi olimlar qatorida o‘zlariga munosib o‘rinlarni egallagan bo‘lsalar, endilikda esa, daqqiyunusdan qolgan, dunyodan ajragan bu – eski ta’lim tizimi oddiy maddoh va jaholatparast kishidan bo‘lak hech kimni yetishtirmaydi.*



Shuning uchun bizda dunyoviy bilim va ilmlarning taraqqiyoti to‘xtab qolgan”.

Husanxon shu davrda xorijdan keladigan tatar va turk tillaridagi gazeta, jurnal va kitoblarni mustaqil mutolaa qila boshlaydi. Tatar ziyolisi bilan tanishib, undan rus tilini mukammal o‘rganishga kirishadi. Moskva, Peterburg, Qozon va Toshkent shaharlarida chop etilgan kitoblarni sotib olib, nafaqat ularni o‘qish, balki aytilgan misol va maslahatlarni amaliyotga tatbiq qilishga urinadi. Fizika va kimyo fanlari bilan mashg‘ul bo‘ladi.

Shu o‘rinda, mana bu holatga e’tibor qaratsak. Husanxon Niyozov 1915-yili Andijondagi ota hovlisidan oqib o‘tadigan ariq suvini to‘sib, kichik bir elektr qurilmasi yasaydi. Ariq ustiga o‘rnatilgan mikroturbina harakati yordamida o‘z qo‘li bilan tayyorlagan generatorni ishga tushiradi va uning vositasida elektr lampochkasini yoqishga muvaffaq bo‘ladi. O‘sha davrda elektr energiyasi asosan temir yo‘l stansiyasidagina mavjud bo‘lganini hisobga olsak, mahalliy o‘zbek yigitining mustaqil ravishda shunday qurilma yaratishi aql bovar qilmaydigan hodisa edi.

Texnikaga qiziqishi baland Husanxon so‘ngra ilk aeroplanlar haqida ma’lumotlar bilan tanishib, ularning tuzilishini sinchkovlik bilan o‘rganadi va planer yasashga kirishadi. Dastlabki ikki tajriba omadsiz tugaydi – yasalgan planerlar havoga ko‘tarilganidan ko‘p o‘tmay yerga qulaydi. Ammo bu qulashlar uni ortga chekintirmaydi. Tirishqoqlik va uzluksiz izlanishlar natijasida yasalgan uchinchi planer Shayxontohur dahasidan havoga muvaffaqiyatli ko‘tarilib, o‘sha paytdagi “Воскресенский” bozorchasi (hozirgi Alisher Navoiy teatri maydoni) yaqinigacha taxminan uch chaqirim masofani bosib o‘tadi. Biroq qurilma tag‘in qulab, voqea kutilmagan yakun topadi: nazoratchilar Husanxon Niyozovni samolyotning kichik maketini yaratib uchirgani uchun g‘ayriqonuniy harakat va din-shariatga shak keltirishda ayblab qamoqqa oladi. So‘ng jo‘yali ayb topolmay, qo‘yib yuborishga majbur bo‘ladi.

Husanxon 1919-yili tahsilni tugallab, o‘qituvchilik faoliyatini boshlaydi. Shu vaqtdan 1921-yilgacha “Milliy ittihod” tashkilotiga a’zo bo‘lib, ma’lum muddat Andijon filialiga rahbarlik qiladi. Tashkilot 1922-yilda tor-mor etilgach, qamoqqa olinadi. Tergov hujjatlarida esa bu voqealar mutlaqo boshqacha talqin qilinadi. Ayblov xulosasida o‘qiymiz: “Aksilinqilobiy, millatchi, qo‘zg‘olon ko‘taruvchi tashkilotning Toshkent filiali rahbarlaridan biri Zuhriddin A’lam Matqosimov tomonidan shu tashkilotga tortilgan, markaz topshirig‘i bilan shu tashkilotning Andijon filialini tuzish uchun keladi. Tashkilot rahbarlari topshirig‘iga ko‘ra, amalda uyushgan holda sovetlarga qarshi millatchilik ishlari olib borgan, O‘zbekistonni SSSRdan ajratib olish uchun qurolli qo‘zg‘olon tayyorlash va O‘zbekistonda burjua-demokratik davlat tuzish uchun kurashgan. Andijonda turgan vaqtida yashirin millatchi tashkilotga 7 kishini tortgan, antisovet faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lgan, mamlakatning yaqin orada mag‘lubiyatga uchrashi haqida gaplar tarqatgan, ya’ni O‘zSSR Jinoyat kodeksining 58-13, 66-1-moddalarida ko‘rsatilgan jinoyat qilgan”. Bu ayblovlar keyingi barcha tergov harakatlari uchun asos qilib olinadi.



Tergov materiallari “Milliy ittihod” tashkiloti fosh etilgach, qahramonimizning boshqa tashkilotchilar qatori hibsga olingani, qariyb o‘n oy qamoqda saqlanib, keyin ozod qilinganini ko‘rsatadi. Biroq hujjatlar uning qanday asosda ozod qilinganiga aniqlik kiritmaydi.

Husanxon Niyozov 1924-yili doimiy yashash uchun Toshkentga ko‘chib kelib, o‘qituvchilik faoliyatini boshlaydi. Keyinchalik undan nega Andijonni tark etgani so‘ralganda, u bu qarorga sog‘lig‘i sabab bo‘lganini ta’kidlaydi: *“Mening Andijondan chiqib ketishimdan maqsad keyingi vaqtlarda o‘pka kasalligim faol jarayonga aylanib borayotgani tufayli iqlim sharoitlarini o‘zgartirishdan iborat bo‘lgandi. Shu bois, mening kasalligimga mos keladigan iqlim sharoitiga va davolanish uchun imkonga muhtoj edim. To‘g‘ri, mening Andijondan chiqib ketishim bir qator mas’ul partiya va sovet xodimlarining, shu jumladan, ilgarigi ittifoqchilarning qamoqqa olinayotgan paytiga to‘g‘ri kelib qolganligi uchun ehtimol sizga meni aksilinqilobchilikda ayblash uchun bahona bo‘layotgandir”.*

Buni qarangki, tergov aynan shu davrni uning ayblov ishidagi asosiy bo‘g‘inga aylantiradi. Ko‘rsatmalarda 1927-yilgacha millatchi kuchlar ochiq faoliyatdan voz kechib, sovet hokimiyati sharoitiga moslashgan holda yashirin usullarga o‘tgani qayd etiladi. Husanxon Niyozov Toshkentda Ilhomjon Islomov, Sa’dulla Karimov, Shorasul Zunnunov, Abdulhamid Sulaymonov (Cho‘lpon) kabi ziyolilar bilan muntazam aloqada bo‘lgani, ular ishtirokida o‘tkazilgan yig‘ilishlarda sovet hokimiyatining muhim siyosiy tadbirlariga qarshi qanday yo‘l tutish masalalari muhokama qilinganini bayon qiladi. Tergov talqiniga ko‘ra, tashkilot avvalgi zarbalardan keyin tarqab ketmagan, balki faoliyat usulini o‘zgartirib, 1936-yilga qadar yashirin ish olib borgan. Ish materiallarida yana Zuhriddin A’lam Matqosimovning uyida o‘tkazilgan nolegal yig‘ilishlar tilga olinib, ularda Ilhom Ismoilov, Sa’dulla Karimov va Qirg‘izboyev ishtirok etgani, shu yig‘inlardan birida Husanxon Niyozovga Andijonda tashkilot faoliyatini yo‘lga qo‘yish vazifasi yuklatilgani haqidagi ko‘rsatmalar ham keltiriladi.

Holbuki, qahramonimiz bu paytda bor diqqatini ilm-fan va maorif sohasiga qaratgan. O‘qituvchilik qilib, fizika va kimyodan dars bergan, darsliklar va terminologik lug‘atlar tayyorlagan. Uzoq yillik faoliyatini muallimlikka bag‘ishlagan.

1938-yil 8-avgust kuni Husanxon Niyozov hibsga olinadi. Shu kuniyoq tuzilgan anketada uning shaxsi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma’lumoti, oilasi va avvalgi faoliyati haqida ma’lumotlar qayd etilar ekan, o‘sha-o‘sha –“Milliy ittihod” tashkilotining Andijon filialiga rahbarlik qilgani tergov uchun asosiy ayblov nuqtasiga aylanadi. Shundan so‘ng ustma-ust so‘roqlar, ayblov xulosalari va yuzlashtirishlar boshlanib ketadi.

Ko‘ringki, akasi Hasanxonning uyida tintuv vaqtida millatchilik ruhidagi she’rlar yozilgan kitob topiladi. Bu borada Hasanxonning ko‘rsatmasida diqqatni tortadigan bir jihat bor. U o‘sha kitobni faqat tintuv o‘tkazilayotgan paytda ko‘rgani, uning bu yerga qanday kelib qolganini mutlaqo bilmasligini aytgan.

O‘zbekiston SSR Oliy sudi 1940-yil mayida Husanxon Niyozov ishini ko‘rib, Jinoyat kodeksining 58-moddasini qo‘llagan holda, uni otuvga hukm qiladi. Tabiiyki, hukmdan norozi qahramonimiz yuqori tashkilotlarga shikoyat bilan murojaat qiladi. 1940-yil 12-dekabrda Respublika NKVD tergov bo‘limi ishni qarab chiqish uchun SSSR NKVD huzuridagi maxsus kengashga yo‘llaydi. Nihoyat, 1941-yil 14-noyabrda Niyozov ayblov xulosasi bilan tanishadi.

Suddagi ko‘rsatmalarning eng e’tiborli jihatlaridan biri tergov jarayoni haqida qahramonimiz aytgan fikrlardir: *“Tergov paytlarida meni urib, kaltaklashganlari uchun men aksilinqilobiy targ‘ibot olish uchun Toshkentdan Andijonga keldim, deb ko‘rsatma berishga majbur bo‘lganman. Mening dadam eshon bo‘lgan va uyda uning kitoblari saqlangan, biroq mening uyimdan hech qanday kitob chiqmagan. Akam ham menga o‘xshab so‘roqda urib kaltaklangani uchun ko‘rsatma berishga majbur bo‘lgandir. So‘ng tergovda akamni otuvga hukm qilishganini bildim. Uning qaysi jinoyati uchun bunday jazo berganlariga hayron qoldim...”*

1941-yil 20-noyabrda sud hukm qiladi: *“Husanxon Niyozov O‘zSSR Jinoyat kodeksining 58/67-moddalari bo‘yicha aybdor deb topilsin va 10 yil ozodlikdan mahrum etilsin, 67-moddasi bilan jazoning yuqori chorasi – otuvga hukm qilinsin. 51-modda asos qilib olinib, unga taalluqli bo‘lgan mol-u mulk davlat foydasiga konfiskatsiya qilinsin”.*

Bu ish shu bilan yakunlanmaydi. Husanxon Niyozov sud hukmidan norozi bo‘lib, yuqori tashkilotlarga arizalar bilan chiqadi, tergovlar qayta avj oladi. SSSR Oliy sudi 1942-yil 29-aprelda Husanxon Niyozov ishini qarab chiqib, unga berilgan otuv hukmini bekor etib, 10 yil qamoq jazosi bilan almashtiradi. Qahramonimiz uzoq Magadanga surgun qilinadi. 1947-yili mehnat mashaqqatlari ostida jon beradi.

Husanxon Niyozovning o‘g‘li, marhum Kozimjon aka 1960-yili O‘zSSR prokurori o‘rinbosari Kopeyka nomiga yozgan xatida otasi qamoqqa olingunga qadar Andijondagi Voroshilov nomli ishchilar fakultetida, Andijon kechki pedinstitutida fizikadan o‘qituvchilik qilgani, Toshkentda 1922-yili fizika va kimyodan darslik, 1926, 1929-yili kimyodan, 1927-yili fizikadan darsliklar, 1931-yili rus-o‘zbek, fizikadan atamalar lug‘ati kitoblarini nashr etgani, 1933-yili esa “Tuproq va o‘g‘it” kitobini nashrga tayyorlab qo‘yganini yozadi.

Nohidxon Niyozovning eslashicha, amakisi Husanxon Niyozov Rizoiy taxallusi bilan she’rlar ham bitgan.

Olim, pedagog va muhandis Husanxon Niyozovning shaxsiy kutubxonasini tintuv qilish oqibatida mingdan ortiq kitob olib ketilgan. Ular orasida jahon miqyosida bosilgan, 60-100 tomdan iborat ensiklopediyalar, qomusiy lug‘atlar, shuningdek, tarix, tibbiyot, fizika, kimyo, texnika va boshqa sohalarga oid nodir kitoblar yo‘qolgan. Afsus...

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor



Kishan kiyma, bo‘yin egma,
Ki sen ham hur tug‘ilg‘onsen.
Abdulhamid CHO‘LPON

QISSASI



Zoit xalfa otasi yo‘lini tutgan, el-yurtga ma’qul kelmaydigan biror ish qilmagan, aksincha, halol mehnati bilan orttirgan mol-mulkini, yerini kambag‘allarga ulashib turgan ekan. Repressiyachilar uni “boy quloq” sifatida qamoqqa olgan. Qizlaridan biri Sharifa xola bu mash’um voqea qanday sodir bo‘lganini umrining oxirigacha aytib yurdi. Yodimda qolganlari: “*Ikkita “chekis”, ikkita o‘zimiznikilar kutilmaganda uyimizga bostirib kirishdi. Uyni tintuv qilishdi, bor narsalarning hammasini xatlab olib ketishdi. Kiyim-kechak, sholcha, gilamlarni ham. O‘radagi bug‘doyni qoplarga joylashdi. O‘zimiznikilardan biri chaqaloq Ma’nixon yotgan beshikni bir tepgan edi, bola big‘illab yerga tushdi. Beshik yostiqchasi tagidagi taqinchoqlarimiz ham ketdi. Qo‘ramizdagi qo‘y-echkilarni bitta-bitta tashqariga sudray boshlashdi. Singlim Sobira yangi tug‘ilgan echki bolasini bag‘riga bosib, yig‘lay boshladi. O‘zimiznikilardan biri uloqchani undan yulqib olmoqchi bo‘lganida, bir chekis “падно, остав” dedi. Shu uloqcha katta bo‘lib, ko‘paydi, sutini ichib, omon qoldik. Yog‘och darvozamizni buzib, aravaga yuklab olib ketishdi. Qo‘shni qishloqqa olib borib, hukumatning idorasiga o‘rnatishgan ekan, shu yerdan har o‘tganimda yuragim shuvillab ketardi. O‘sha ikki o‘zimiznikilarning biriga qarashli uyda bizning uydan olib ketilgan katta gilam osilib turganiga ko‘p bor ko‘zim tushgan...”*

Yana bir xotira. Zoit xalfaning uyida, hovlisi-yu qo‘rasida qo‘lga ilingudek hech narsa qolmaydi. Shu bois, o‘sha “o‘zimiznikilar” hovlini uch marta sotuvga qo‘yadi. Zoit xalfaga yaqin qarindosh bo‘lgan Akbarali uch marta ham sotuv pulini yonidan to‘lab, hovlini saqlab qoladi.

Sharifa xola bu yog‘ini yig‘lab eslaydi, tinglash og‘ir: *“Olti qiz, bir o‘g‘il mushtipar onamning qo‘lida qoldik. Boshimizga og‘ir kunlar keldi. Dadamizning daragi chiqar, deb ko‘p harakat qildik, ammo hech joyda bizni eshitishmadi. Bir yili voyenkomatda ishlaydigan bir odam qishloqqa kelib, Zoit xalfa bilan birga qamalganlarni O‘shdagi Sulaymon tog‘ining orqasiga olib o‘tib, tepalikdan pastga dumalatib otishgan, shu joyga ko‘mib tashlashgan”, degan gapni aytibdi...”*

Zoit xalfaning rafiqasi Saidbibi farzandlarini o‘ksitmay katta qiladi, yetim-yesirlarga xalfa kabi qo‘lidan kelganicha yordam beradi. Dalada ishlayotgan traktorchilarga non yopib, tirikchiligini o‘tkazadi, ba’zi nonlar yopishtirilgan joyidan tushib, oqib ketsa, ularni och-nahorlar yeydi, deb tandir yelkasida turadigan yengcha ichiga yashirib qo‘yadi. Ularni qarovsiz qolgan bolalar yeydi. Saidbibi o‘z farzandidek ko‘kragini tutib, katta qilgan Matxoliq ismli bola yillar o‘tib serfarzand bobo bo‘ladi, Saidbibi olamdan o‘tganida, marhumani onam deb o‘zi tuproqqa qo‘yadi.

Bir muhim gap shuki, hamma zamonlarda, hamma joyda ham yurt boshiga kulfat tushganda, tashqi dushmanlar ichki dushmanlar yordamidan g‘oyat unumli foydalangan. Uzoqqa bormaylik, Gdlyan-Ivanov qirg‘inida ham shunday bo‘lgan. Ularga “Senlar O‘zbekistonga borib, falon viloyatning falon qishlog‘idagi paxtakor dehqonni qamoqqa olasan”, deyilmagan. Kimni hibsga olishni ko‘p hollarda “o‘zimiznikilar” hal qilgan.

* * *

1953-yilning bahori. Stalinning o‘limidan so‘ng tirik qolgan odamlar lagerlardan qayta boshlaydi. Kimlardir Sibirdan yoki shimoldan oilasiga xabar jo‘natgani to‘g‘risidagi “mish-mish”lar tarqaladi. Tirik qolganlar lagerlardan abgor holda, ammo ozod bo‘lib qaytishadi. Bu to‘g‘rida otasi To‘raqul Aytmatov repressiya qilingan Roza Aytmatova (Chingiz Aytmatovning singlisi) quyidagilarni eslaydi:

“Bu holat onamga kuch bera boshladi. Uning ko‘zlarida umid uchqunlari paydo bo‘ldi. Biz unga qarab, hayron qolardik: onam bolalarining ko‘zi oldida o‘zgarib borayotgandi. Yanoqlari qizarib, ko‘zlari chaqnadi, harakatlari ishonchli va dadil bo‘lib qoldi. Avtobusda otam to‘g‘risida biror xabar bormi, deya NKVDga borar ekanmiz, onam menga: “Bilasanmi, Roza, otalaringizni ehtimol Sibir yoki Uzoq Sharqqa yuborishgan bo‘lishi mumkin. Hozir o‘sha taraflardan ko‘pchilik qaytyapti. U tirik bo‘lsa, bas. Hatto, boshqa oilasi bo‘lsa ham – ahamiyati yo‘q. Asosiysi, u tirik bo‘lsin... Senlarni ko‘rib qanchalar quvonishini bir tasavvur etib ko‘r. Afsuski, qanday voyaga yetganlaringni ko‘rmadi”, dedi.

NKVD binosiga yaqinlashgach, onam umidga to‘lgan holda ichkariga kirdi, men esa uni kutib, tashqarida qoldim. Birozdan so‘ng eshik ochilib, ostonada rangi devorday oqargan onam ko‘rindi... Onam indamay, titroq qo‘llari bilan menga ikki varaq qog‘oz uzatdi. Bu otamning o‘limidan so‘ng oqlangani to‘g‘risidagi ma’lumotnoma va uning o‘limi haqidagi shahodat xati edi. Keyinchalik ma’lum bo‘ldiki, NKVDchilar bizni uzoq yillar davomida aldab kelgan, otamni o‘sha 1938-yiliyoq otib tashlashgan ekan.

Onam: “Uyga borgach, Chingizning ko‘nglini cho‘ktirmaslik uchun yig‘lamaymiz. Xudo asrasin, u butunlay yotib qolishi mumkin”, dedi. Bechora onam o‘zini tutishga urinar, biroq buni nechog‘lik qiyinchilik bilan uddalayotgani ko‘rinib turardi. Umrining oxirigacha umid bilan yashadi, “To‘raqul tirik, u bir kuni qaytib keladi va biz yana oldingiday baxtli yashaymiz”, degan ishonchni ko‘nglida ardoqlab keldi...”

Vaqt hamma narsani joy-joyiga qo‘ydi. Begunohlarning nomi oqlandi. Farzandlar, nabiralar, ulardan keyingi avlodlarning yuziga yorug‘lik indi. Davlatimiz rahbari aytganidek, “mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma’rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o‘z qimmati va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ‘ib etish” endigi muhim vazifamizdir. Bu borada ibratli ishlarni amalga oshirayotgan zahmatkash olimlardan yangi tadqiqotlar kutib qolamiz.

Ahmadjon MELIBOYEV
Toshkent – Bishkek – Toshkent

O‘ZBEKISTONni tanimoq baxti



Boshlanishi 1-sahifada.

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligiga munosib tuhfa sifatida turkiyalik taniqli olim Kemal Yavuz Atamanning “Men tanigan O‘zbekiston” kitobi chop etildi. Mazkur asar Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, “Ma’rifat” targ‘ibotchilari jamiyati hamda Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti hamkorligida amalga oshirilayotgan “Ma’rifat elchilari” loyihasi doirasida o‘zbek va turk tillarida nashrga tayyorlandi.



Kemal Yavuz Ataman huquqshunos, siyosatshunos, sharqshunos olim, adib va jamoat arbobi. U globallashuv, Movarounnahr sivilizatsiyasi, tasavvuf, navoiyshunoslik, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati va sivilizatsiyasi bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar muallifi hisoblanadi. Olim ko‘p yillardan buyon O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi ilmiy-ma’rifiy hamkorlikni rivojlantirish, o‘zbek olimlari va mutafakkirlarining ilmiy merosini turk tiliga tarjima qilish va nashr etish, qo‘shma ilmiy anjumanlar hamda madaniy loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Kitobning taqdimot marosimida davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari va vakillari, olimlar, akademiklar, ziyolilar, yozuvchi va tarjimonlar, diplomatik korpus vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari, talabalar hamda keng jamoatchilik ishtirok etdi.

Tadbirda so‘z olgan Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Otabek Hasanov, akademik Akmal Saidov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, xalq shoiri, senator Sirojiddin Sayyid, tarix fanlari doktori, professor Jannat Ismoilova mazkur ijod mahsuli nafaqat O‘zbekiston haqidagi ilmiy-ma’rifiy asar, balki xorijlik olim nigohida mamlakatimiz tarixi, madaniyati va zamonaviy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim ilmiy manba hisoblanishini ta’kidlab, muallifni mashaqqatli mehnatlari samarasi bilan qutladi.



Asarda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan davlat siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar, xalqimiz farovonligini ta’minlashga xizmat qilayotgan o‘zgarishlar hamda mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi haqida xolis kuzatuvlar va ilmiy xulosalar ta’sirchan bayon etilgan. Shuningdek, muallifning 1991-yildan buyon yurtimiz bo‘ylab amalga oshirgan qator sayohatlari, turli hududlarda olib borgan ilmiy ekspeditsiyalari, arxiv va manbalar asosidagi izlanishlari, davlat va jamoat arboblari, olimlar, ziyolilar hamda oddiy insonlar bilan samimiy muloqotlari jamlangan.

Kitob ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda Movarounnahr sivilizatsiyasi, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarning jahon tamaddunidagi o‘rni, buyuk allomalarning boy ilmiy-ma’naviy merosi, islomiy madaniyat rivojiga qo‘shgan hissasi, tasavvuf maktablari va turkiy xalqlar o‘rtasidagi tarixiy aloqalar keng yoritilgan bo‘lsa, ikkinchi qism Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot modeliga bag‘ishlangan. Unda davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar, iqtisodiy liberallashuv, investitsiya siyosati, raqamli transformatsiya, ta’lim va ilm-fan sohasidagi o‘zgarishlar, yoshlar siyosati, gender tengligi, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, shuningdek, mamlakatning Markaziy Osiyodagi integratsion jarayonlar va global siyosatdagi faol ishtiroki ilmiy tahlil qilingan.

Taqdimot doirasida ishtirokchilar kitobning ilmiy ahamiyati, uning O‘zbekistonning boy tarixi, milliy-ma’naviy merosi va bugungi taraqqiyot yo‘lini xorij auditoriyasiga yetkazishdagi o‘rni haqida fikr almashdilar. Muallifning O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi ilmiy, madaniy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi alohida e’tirof etildi.

Otabek BAKIROV

KUZATUV



Bir vaqtlar adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov zamonaviy o‘zbek she’riyati haqida kuyunib, shunday savol qo‘ygan edi: “Nega bugungi she’riyatimizda o‘rtamiyonachilik kuchayib ketyapti? Nega bir-biriga o‘xshab ketadigan egizak she’rlar soni ortib boryapti? Nega she’rlarda olam tor, hayot nafasi zaif, kitobiylik kuchli?” Nazarimizda, oradan yillar o‘tgan bo‘lsa-da, bu savollar hali-hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. She’rning tug‘ilish vatani – yurak. Unda shoirning iztirobi, dardi, hayot haqidagi kuzatuvlari va qalb harorati mujassam bo‘lmasa, she’r o‘quvchiga ta’sir qilmaydi. Iste’dod bilan bir qatorda, ijodkorning keng tafakkuri, boy tasavvuri va so‘zga mas’uliyatli munosabati ham muhim ahamiyatga ega.

She’r ko‘p, ammo...

Abdulla Qahhorning “Guli bor-u, mevasi yo‘q daraxt” degan ta’biri ayrim she’rlarga nisbatan ham aytilgandek tuyuladi. Chunki bugun she’rlar soni ko‘paygani bilan ularning barchasi ham badiiy yuksaklikka erishayotgani yo‘q. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar davrida har kuni o‘nlab she’rlar e’lon qilinmoqda. Afsuski, ularning ko‘pchiligida badiiy mushohada, obrazli fikr va she’riy kashfiyot yetishmaydi. Ba’zan hatto oddiy imlo va uslubiy xatolar ham ko‘zga tashlanadi. Natijada bunday she’rlar tez tarqaladi, ammo xuddi shunday tez unutiladi.

Holbuki, haqiqiy ijod sabr va mashaqqatni talab qiladi. Abdulla Oripov “Onajon” she’rini yozishdan avval uzoq vaqt ruhiy tayyorgarlik ko‘rgani ma’lum. Abdulla Qahhor esa “Bemor” hikoyasini o‘ttiz marta qayta ishlab, shundan keyingina chop ettirgan. Bu misollar ustozlar so‘z san’atiga naqadar yuksak mas’uliyat bilan yondashganini ko‘rsatadi. Shu bois, ularning asarlari vaqt sinovidan o‘tib, bugun ham kitobxonlar mehrini qozonib kelmoqda.

Bugungi she’riyatda yana bir muammo – ayrim mualliflarning kliplarda ijro etiladigan qo‘shiq uchun yozilgan saviyasi past matnlarni ham she’r sifatida taqdim etayotganidir. Bunday asarlarda ko‘pincha milliy ruh, hayrat, qalbni uyg‘otuvchi obraz va chuqur ma’no yetishmaydi. Erkin Vohidov: “Agar shoir bo‘lsak, o‘quvchilarning yuziga qaraganda uyalmaydigan mukammal shoir bo‘laylik. Xalqimiz – zukko xalq, oltin bilan misning farqini biladi”, deb bejiz aytmagan.

Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida badiiy mezonni shunday belgilagan: “Ham yaxshi shaklga ega bo‘lgan, ham go‘zal ma’no asosiga qurilgan she’r – haqiqiy she’r”dir. Bu hikmatlar bugun ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Chunki haqiqiy she’r qalbda tug‘iladi, mehnat bilan sayqal topadi va vaqt sinovidan o‘tadi.

Bugun shoirlar ko‘p. Ammo haqiqiy she’riyat uchun xizmat qilayotgan, o‘quvchi qalbida iz qoldirayotgan she’rlar qancha? Ana shu savol har bir ijodkorni o‘ylantirishi lozim.

Sultonboy DEHQONOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

HAJV



Termilib

Jonon borodur metro‘da Pro‘-Ayfonga termilib,
Beasos xursand manam mazkur jononga termilib.

Tilponin oyinasi magnit kabi tortur mani,
Bog‘li o‘rdak qolganiday obi ravonga termilib.

Ne balo sehr aylamishdir zehnin quti jilvosida?
Kangulda paykoni shubha qoshi kamonga termilib.

Do‘stlarim, ayb etmagaysiz, talpindi deb nomahrama,
Tobakay yotqay faqir eski javonga termilib?

Vahki, durust hamsoyaye yo‘q, kirdi-chiqdi qilsamiz,
Xom kallada xomxayollar bo‘lka nonga termilib.

Munda diqqat tortgim qistar jo‘yali gaplar otib
Ki, so‘qim qilgay nido sada rayhonga termilib.

Harakatda barakat deb, bir yo‘taldim ma’nili*,
Hadik ichra qotdi omma man tomonga termilib.

El bila nechpul ishim, voh, bosh ko‘tarmas bu kishim,
Bosh ko‘tarsa, qolg‘ay erdi mardi maydonga termilib.

Go‘yo vagon qalqqan misol, bir qadam odimladim,
Axir, chalpak yog‘mas aslo, kutsang osmonga termilib.

Boqsam, tilponda bir dayus jilpillayotir behayo,
Yo piray! O‘ltirg‘on erkan bezot shaytonga termilib!

Bilmadim, qandoq qilib urdim o‘zimni tashqari,
Sattor-o, qolding yana orqa vagonga termilib.

Sattor SUROB

** nuktadon tadqiqotchi manbashunoslar dalolaticha, bu tarixiy g‘azal tojdor-kovid mavsumida yozilgan bo‘lishi mumkin.*

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 454
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 877
Lotin yozuvida – 11 577
Media kuzatuvchilar – 91 497
Buyurtma: G – 840
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov
Navbatchi muharrir: Otabek Bakirov
Sahifalovchilar: Erkin Yodgorov, Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI